

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA MAXSUS
TA‘LIM VAZIRLIGI**

TOSHKENT MOLIYA INSTITUTI

“SOLIQLAR VA SOLIQQA TORTISH” KAFEDRASI

SAIDKARIMOV SHUXRAT SHAKIROVICH

**“JISMONIY SHAXSLARDAN UNDIRILADIGAN
SOLIQLARNI HISOBLASH USLUBIYATINI
TAKOMILLASHTIRISH”**

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

“HIMOYAGA RUXSAT ETILDI”

“Soliqlar va soliqqa tortish”
kafedrası mudiri
i.f.d., professor Jo‘raev A.S. _____

“ _____ ” _____ 2013 y.

Bitiruvchi: Saidkarimov Shuxrat Shakirovich _____

Ilmiy rahbar: k.o‘q. Shodiev O.A. _____

TOSHKENT - 2013

MUNDARIJA

Betlar

KIRISH.....	3
I BOB. JISMONIY SHAXSLARDAN UNDIRILADIGAN SOLIQLARNI HISOBLASH USLUBIYATINING NAZARIY ASOSLARI.....	6-18
1.1. Jismoniy shaxslarni soliqqa tortishning nazariy-uslubiy asoslari.....	6
1.2. Jismoniy shaxslardan undiriladigan soliqlarning davlat byudjeti daromadlarini shakllantirishdagi ahamiyati.....	9
II BOB. JISMONIY SHAXSLARDAN UNDIRILADIGAN SOLIQLARNI HISOBLASH USLUBIYATINING AMALIY ASOSLARI (OLMAZOR TUMAN DSI MA'LUMOTLARI ASOSIDA).....	19-39
2.1. Jismoniy shaxslarning daromadlarini soliqqa tortish uslubiyatining amaldagi holati tahlili.....	19
2.2. Jismoniy shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliqni hisoblash uslubiyatining amaldagi holati tahlili.....	28
2.3. Jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig'ini hisoblash uslubiyatining amaldagi holati tahlili.....	33
III BOB. JISMONIY SHAXSLARDAN UNDIRILADIGAN SOLIQLARNI HISOBLASH USLUBIYATINI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI.....	40-52
3.1. Jismoniy shaxslardan undiriladigan soliqlarni hisoblash tartibini takomillashtirishda xorijiy davlatlar tajribalaridan foydalanish istiqbollari.....	40
3.2. Jismoniy shaxslardan undiriladigan soliqlarni hisoblash tartibini takomillashtirish yo'llari.....	46
XULOSA.....	53
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI.....	58

KIRISH

Mavzuning dolzarbligi. O'zbekiston Respublikasi bozor munosabatlarini rivojlantirish jarayonining muhim bosqichidan o'tmoqda. Iqtisodiyotning barcha tarmoqlarida tadbirkorlik faoliyati va davlatning bilvosita boshqarishga asoslangan holda, raqobatchilik mexanizmiga tayanib chuqur tuzilmaviy islohotlar amalga oshirilmoqda. Hozirgi kunda, soliq siyosatining asosini soliqqa tortish tizimidagi islohotlarni amalga oshirish va soliq siyosatini yanada erkinlashtirish bo'lib, buning asosiy yo'nalishi soliqlarning rag'batlantiruvchi funktsiyasini mavqeini oshirish hamda fiskal funktsiyasini kamaytirishga qaratilgan chora tadbirlar tashkil qilmoqda.

Hozirgi kundagi soliq siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri bo'lgan jismoniy shaxslar zimmasidagi soliq yukini kamaytirish va aholining real daromadlari darajasini oshirish masalasi dolzarbligicha qolmoqda, shunga qaramay ushbu yo'nalishda qator e'tiborga loyiq ishlar amalga oshirilmoqda. Bu borada respublikamiz Prezidenti I.A.Karimovning quyida bildirgan fikrlarini keltirib o'tish joiz: "2012 yilda soliq yukini kamaytirish siyosati davom ettirildi. yakka tartibdagi tadbirkorlar uchun belgilangan soliq stavkasi esa sezilarli tarzda, ya'ni o'rtacha ikki barobar kamaytirilgani buni yaqqol tasdiqlaydi. ... Hech kimga sir emaski, hayot darajasi, birinchi navbatda, aholining daromadlari miqdori bilan belgilanadi. O'tgan 2012 yilda bu ko'rsatkich 17.5 foizga o'sdi, eng kam ish haqi 26.5 foizga oshdi. Umuman olganda, 2000 yil bilan taqqoslaganda, real daromad aholi jon boshiga 8.6 barobar ko'paydi. Hisob-kitoblarga ko'ra, o'rtacha ish haqi iste'mol savatchasi bahosidan 4 barobardan ziyod oshdi¹".

Ma'lumki, tadqiqot ishlarini aksariyati yuridik shaxslar to'laydigan soliqlarga bag'ishlangan bo'lib, jismoniy shaxslar to'laydigan soliqlarni alohida chuqur o'rganishga bag'ishlangan ishlar (jismoniy shaxslardan olinadigan

¹ "Bosh maqsadimiz – keng ko'lamli islohotlar va modernizatsiya yo'lini qat'iyat bilan davom ettirish". O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning 2012 yilda mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari hamda 2013 yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma'ruzasi. //Ma'rifat gazetasi, 19 yanvar 2013 yil, №6

daromad solig'iga oid ishlarni hisobga olmaganda) bugunga qadar deyarli amalga oshirilmagan. Xususan, jismoniy shaxslar to'laydigan soliqlar byudjet daromadlari tizimida katta ulush egallamaydi, ammo, soliq tizimida munosib ahamiyatga egadir.

Jismoniy shaxslar to'laydigan soliqlarni nazariy jihatdan tadqiq etish, birinchi, ushbu soliqlarni soliq-byudjet tizimidagi rolini oshirishga xizmat qilsa, ikkinchidan, aholining soliqlar xususidagi fikrlarini ijobiy tarzda bo'lishini ta'minlaydi. Shundan kelib chiqib aytish mumkinki, jismoniy shaxslardan undiriladigan soliqlar va ulardan beriladigan imtiyozlarni alohida chuqur tadqiq etadigan ilmiy tadqiqotlarga ehtiyoj mavjud. Yuqoridagilarga tayangan holda, jismoniy shaxslar to'laydigan soliqlar tizimini nazariy jihatdan mushohada etish va ushbu soliqlar mexanizmini chuqur tahlil etish bugungi kunning dolzarb masalalaridan biridir. Bu esa tadqiq etilayotgan mavzuning dolzarbligini belgilaydi.

Bitiruv malakaviy ishi ob'ekti va predmeti. Jismoniy shaxslardan undiriladigan soliqlar, jumladan, jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i, jismoniy shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq hamda jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig'i bitiruv malakaviy ishi ob'ekti hisoblanadi.

Jismoniy shaxslardan undiriladigan soliqlarni hisoblash va byudjetga to'lash jarayonida vujudga keladigan iqtisodiy munosabatlar bitiruv malakaviy ishi predmetini tashkil etadi.

Bitiruv malakaviy ishi maqsadi va vazifalari. Ushbu bitiruv malakaviy ishining asosiy maqsadi jismoniy shaxslardan undiriladigan soliqlarnin iqtisodiy mohiyati va o'ziga xos xususiyatlarini o'rganish, jismoniy shaxslardan olinadigan soliqlarning byudjet daromadlarini shakllantirishdagi ahamiyatini tahlil etish hamda ularni undirish bilan bog'liq muammolarni aniqlash va bartaraf etish bo'yicha taklif va tavsiyalar berish hisoblanadi. Ushbu maqsadga erishishda quyidagilarni amalga oshirish vazifa sifatida belgilab olindi:

- jismoniy shaxslardan undiriladigan soliqlarning iqtisodiy mohiyatini izohlash;

- jismoniy shaxslardan undiriladigan soliqlarning byudjet daromadlarini shakllantirishdagi ahamiyatini yoritish;
- jismoniy shaxslardan undiriladigan soliqlarning elementlariga tavsif berish;
- jismoniy shaxslardan undiriladigan soliqlar bo'yicha taqdim etiladigan soliq imtiyozlarini nazariy jihatdan tahlil qilish;
- jismoniy shaxslarni soliqqa tortishda rivojlangan xorijiy davlatlar ilg'or tajribalarini o'rganish va ulardan foydalanish istiqbollari belgilash;
- jismoniy shaxslardan undiriladigan soliqlarni hisoblash uslubiyatini takomillashtirish bo'yicha ilmiy taklif va amaliy tavsiyalar ishlab chiqish.

Bitiruv malakaviy ishining nazariy va amaliy ahamiyati. Bitiruv malakaviy ishida asoslangan ilmiy xulosa va amaliy takliflardan jismoniy shaxslardan undiriladigan soliqlarni hisoblash uslubiyatini takomillashtirishda, soliq munosabatlarini tartibga solishda, soliqlar bo'yicha me'yoriy hujjatlarni ishlab chiqishda hamda jismoniy shaxslarni soliqqa tortishga doir ilmiy-tadqiqot ishlarini yanada chuqurlashtirishda foydalanish mumkin.

Bitiruv malakaviy ishining tarkibi kirish, uchta bob, xulosa hamda foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iboratdir. Bitiruv malakaviy ishining kirish qismida mavzuning dolzarbligi, tadqiqot ob'ekti va predmeti, maqsadi va vazifalari, nazariy va amaliy ahamiyati asoslab berilgan.

Ishning birinchi bobida jismoniy shaxslardan undiriladigan soliqlarni hisoblash uslubiyatining nazariy asoslari yoritib berilgan.

Bitiruv malakaviy ishining ikkinchi bobida jismoniy shaxslardan undiriladigan soliqlarni hisoblash uslubiyati Olmazor tuman DSI ma'lumotlari asosida tahlil qilingan.

Ishning uchinchi bobida jismoniy shaxslardan undiriladigan soliqlarni hisoblash uslubiyatini takomillashtirish yo'llari yoritilgan.

Xulosa qismida mavzuni tadqiq qilish natijasida chiqarilgan xulosalar bayon qilinib, taklif va tavsiyalar berib o'tilgan.

1-BOB. JISMONIY SHAXSLARDAN UNDIRILADIGAN SOLIQLARNI HISOBLASH USLUBIYATINING NAZARIY ASOSLARI.

1.1. Jismoniy shaxslarni soliqqa tortishning nazariy-uslubiy asoslari.

Soliq munosabatlari mavjud bo'lishining asosiy shartlaridan biri - bu davlatning mavjudligi bo'lsa, ikkinchi sharti bo'lib soliqlarni to'lashga qobil bo'lgan soliq to'lovchilarning mavjudligidir. Olinish manbaiga ko'ra soliqlar yuridik va jismoniy shaxslardan olinadigan soliqlarga ajratiladi. Soliq solish maqsadida *yuridik shaxslar* deganda mulkida, xo'jalik yuritishi yoki tezkor boshqaruvida mol-mulki bo'lgan va o'z majburiyatlari bo'yicha ushbu mol-mulk bilan javob beradigan, shuningdek, mustaqil balansga va hisob-kitob varag'iga ega bo'lgan alohida bo'linmalar ham tushuniladi. *Jismoniy shaxslar* deganda O'zbekiston Respublikasining fuqarolari, chet el fuqarolari va fuqaroligi bo'lmagan shaxslar tushuniladi. Moliya yilida soliq solinadigan daromad, mol-mulk, yer maydoni va shu kabi boshqa predmetlarga ega bo'lgan jismoniy shaxslar ularga belgilangan soliqlarni to'laydilar.

O'zbekiston Respublikasida doimiy yashab turgan yoki moliya yilida boshlanadigan yoxud tugaydigan o'n ikki oygacha bo'lgan istalgan davr mobaynida 183 kun yoki undan ko'proq muddatda O'zbekistonda turgan jismoniy shaxs O'zbekiston Respublikasining rezidenti deb qaraladi².

O'zbekiston Respublikasining rezidenti bo'lgan jismoniy shaxslarga ularning O'zbekiston Respublikasidagi, shuningdek, undan tashqaridagi faoliyati manbalaridan olingan daromadlari bo'yicha soliq solinsa, O'zbekiston Respublikasining norezidenti bo'lgan jismoniy shaxslarga O'zbekiston Respublikasi hududidagi faoliyatdan olingan daromadlar bo'yicha soliq solinadi.

Jismoniy shaxslar to'laydigan soliqlar xususiyati shundan iboratki, soliqlar jismoniy shaxsning o'zi tomonidan, o'z daromadidan to'lanadi. Soliqlar va yig'imlar bu erda (mehnat haqidan daromad solig'idan tashqari) naqd pulda to'lanadi. Bu erda soliq to'lovchi jismoniy shaxs bilan soliq undiruvchi (nazorat

² O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksi. –T.: “Adolat”, 2012

qiluvchi) idoralar o'rtasida yuzma-yuz keladigan pul munosabatlari mavjud. Bu munosabatlar jarayonida soliq undiruvchi nihoyatda madaniyatli, xushmuomila bo'lsa, soliq qonunchiligi, soliq munosabatlar bilan bog'liq bo'lgan iqtisodiy ko'rsatkichlarni (masalan, byudjet xarajatlari tarkibi) yaxshi bilsa soliq idoralari katta muvoffaqiyatga erishadi. Jismoniy shaxslar soliqlari deganda aholining daromadlari, mol-mulki qiymatidan, foydalanayotgan yerlari uchun va boshqa hollarda davlat byudjetiga qonun bo'yicha to'lanadigan soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar tushuniladi.

Jismoniy shaxslar soliqlari bu aholining bir qismi daromadini qayta taqsimlash yo'li bilan markazlashgan pul fondiga jalb qilish usulidir.

Jismoniy shaxslar to'laydigan soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar tarkibi quyidagilardan iborat:

- jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i;
- mol-mulk solig'i;
- yer solig'i;
- bojxona to'lovlari;
- yer qat'ridan foydalanuvchilar uchun soliqlar va maxsus to'lovlar;
- qat'iy belgilangan soliq – yakka tartibdagi tadbirkorlar uchun;
- suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq – suv resurslaridan tadbirkorlik faoliyati uchun foydalanilganda;
- byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasiga sug'urta badallari;
- davlat boji;
- avtotransport vositalarini olganlik va (yoki) vaqtinchalik olib kirganlik uchun Respublika yo'l jamg'armasiga yig'im.

Jismoniy shaxslardan undiriladigan soliqlarning mohiyati ularni davlat byudjetiga undirishda namoyon bo'ladi (bu haqda batafsilroq keyingi savolimizda yoritamiz).

Yuqorida qayd etilganlardan xulosa qilib aytishimiz mumkinki, mamlakatimiz soliq qonunchiligiga muvofiq soliq to'lovchilar ikki katta guruhga, ya'ni yuridik va jismoniy shaxslar guruhlariga bo'linadi va ularning

faoliyat ko'rsatish xususiyatidan kelib chiqib yana tarkibiy qismlarga ajratish mumkin. Respublikamiz davlat byudjeti daromadlarini shakllantirishda yuridik shaxslar to'laydigan soliqlar katta ahamiyatga egaligini yuqoridagi ma'lumotlardan bevosita ko'rishimiz mumkin. Demak, jismoniy shaxslar soliqlarining mohiyati soliqlarning umumiy mohiyatidan kelib chiqib, ularning nazariy masalalarining asosini tashkil etadi. Jismoniy shaxslardan olinadigan soliqlar o'zining xususiyatlariga ko'ra yuridik shaxslardan olinadigan soliqlardan farq qiladi. Xususiyatli jihatlar esa jismoniy shaxslardan soliq undirishning huquqiy mexanizmida o'z ifodasini topgan. Shu bois keyingi paragrafda jismoniy shaxslardan soliq undirishning huquqiy asoslari borasida to'xtalib o'tamiz.

Prezidentimiz I.A.Karimov ta'kidlaganidek: "Jismoniy shaxslardan olinadigan soliqlar, bir tomondan, xodimlarni o'z mehnati bilan ijtimoiy ishlab chiqarishda faol ishtirok etishga rag'batlantirishi, ikkinchi tomondan, ish haki darajasi sarflangan mehnat samarasiga mutanosib bo'lishga yordam ko'rsatishi, mehnatkashlarning daromadlaridagi tafovut asossiz ravishda katta bo'lishiga olib kelmasligi lozim"³.

Jismoniy shaxslardan olinadigan soliqlar davlat byudjeti daromadlarini shakllantirishda muhim o'rin egallashi bilan birga bir qator xususiyatlarga ham ega. Ularning asosiylari quyidagilardir:

- soliqlarni naqd va naqdsiz pul ko'rinishida to'laydi;
- jismoniy shaxslar to'laydigan soliqlarni hisoblash majburiyati soliq agentlari (ish beruvchi) va davlat soliq xizmati organlariga yuklatilgan, ularni to'lash esa jismoniy shaxslar zimmasiga yuklatiladi;
- jismoniy shaxslardan undiriladigan soliqlarning ayrimlarini byudjetga tushirish bilan bog'liq muammolar deyarli yo'q (masalan, jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i), ayrimlarini yig'ish esa bir qadar qiyin (masalan, jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk va yer soliqlari).


³ Karimov I.A. O'zbekiston buyuk kelajak sari. –T.: "O'zbekiston", 1998. 360-bet

Qayd etish lozimki, jismoniy shaxslar to'laydigan mol-mulk va yer solig'ini undirish mexanizmi boshqa soliq turlari mexanizmidan bir muncha farq qiladiki, bu farq birinchilarining biroz murakkabligi bilan tavsiflanadi. Biz bu erda murakkablik deganda soliqni hisoblashni emas, balki, bu soliq turlarini undirish mexanizmini nazarda tutayapmiz. Masalan, jismoniy shaxslardan undiriladigan daromad solig'i yoki tadbirkorlik faoliyati uchun yakka tartibdagi tadbirkorlardan olinadigan qat'iy belgilangan soliqni undirish mahalliy soliqlarga nisbatan oson va qulayligi bilan ajralib turadi. Chunki, daromad solig'i shaxs ishlaydigan muassasa tomonidan ushlab qolinsa, tadbirkor o'z faoliyatini to'xtatmasik uchun o'z to'lovlarini ma'suliyat sezgan holda to'lashga harakat qiladi. Ammo, jismoniy shaxslar to'laydigan mahalliy soliqlar xususida bunday fikrni keltirish doimo ham to'g'ri emas. Sababi, aholi umumdavlat soliqlariga nisbatan mahalliy soliqlarni to'lashdan manfaatdorlik darajasi past. Bu holatlar shunday hulosaga olib keladiki, jismoniy shaxslardan undiriladigan soliqlarni takomillashtirishda ushbu soliqlarni undirish bilan bog'liq jarayonlarga ko'proq e'tibor qaratish lozim.

1.2. Jismoniy shaxslardan undiriladigan soliqlarning davlat byudjeti daromadlarini shakllantirishdagi ahamiyati.

Iqtisodiy kategoriya sifatida byudjet turli byudjet fondlarini shakllantirish, taqsimlash, foydalanish paytida yuzaga keluvchi va ro'yobga chiquvchi iqtisodiy munosabatlardir. Moddiy ma'noda byudjet - tegishli darajadagi davlat va mahalliy hokimiyat idoralari faoliyatini ta'minlovchi, ular oldiga qo'yilgan siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy vazifalarni bajarish imkonini beruvchi markazlashtirilgan pul mablag'lari fondidan iboratdir. Huquqiy kategoriya sifatida byudjet tegishli xudud doirasida markazlashtirilgan pul mablag'larini shakllantirish, taqsimlash, foydalanishga qaratilgan va tegishli davlat yoki mahalliy hokimiyat idorasi tomonidan tasdiqlangan asosiy moliyaviy reja, yuridik me'yorlardan iboratdir.

O'zbekiston Respublikasi Davlat byudjetining tuzilishi O'zbekiston Respublikasining "Byudjet tizimi to'g'risida"gi qonuniga muvofiq respublikaning mustaqil davlat va ma'muriy-hududiy tuzilishi bilan belgilanadi. Tarkibiga respublika byudjetini, Qoraqalpog'iston Respublikasi byudjetini va mahalliy byudjetlarni olib, tuziladigan ijtimoiy va iqtisodiy rivojlantirish Davlat rejasiga muvofiq ravishda daromad va xarajatlar bo'yicha tuziladi.



1-chizma. O'zbekiston Respublikasi Davlat byudjetining tarkibiy tuzilishi⁴

O'zbekiston Respublikasi byudjet tizimi ichida Respublika byudjeti katta ahamiyatga ega. Respublika byudjeti Davlat byudjetining umumdavlat tusidagi tadbirlarni moliyalashtirishda foydalaniladigan qismi bo'lib, unda daromad manbalari va ulardan tushumlar miqdori, shuningdek moliya yili maboynida aniq maqsadlar uchun ajratiladigan mablag'lar sarfi yo'nalishlari va miqdori nazarda tutiladi. Shu sababli bu byudjetga asosiy soliqlar daromad manbai qilib birlashtirilgan. Buni quyidagi jadvalda ham ko'rish mumkin.

1-jadval

**O'zbekiston Respublikasi davlat byudjeti daromadlari
ko'rsatkichlarining dinamikasi (foizda)⁵**

Ko'rsatkichlar	2009 yil	2010 yil	2011 yil	2012 yil
Davlat maqsadli jamg'armalarsiz daromadlari - jami	100	100	100	100

⁴ O'zbekiston Respublikasining "Byudjet tizimi to'g'risida"gi Qonuniga muvofiq ishlab chiqildi.


⁵ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti qarorlariga ilovalar asosida tayyorlandi.

To'g'ri soliqlar	26,6	26,1	26,2	25,2
Egri soliqlar	49,5	53,1	53,5	54,3
Mol-mulk solig'i va resurs to'lovlari	16,0	15,1	14,3	13,3
Ustama foyda solig'i	2,3	0,2	0,9	1,2
Boshqa daromadlar	5,6	5,5	5,1	6,0

Jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, byudjet daromadlarini shakllantirishda egri soliqlarning o'rni muhim ahamiyatga ega bo'lib, bu turdagi soliqlar 2009 yilda 49,5 foizni tashkil qilgan bo'lsa, 2012 yilda 54,3 foizni tashkil etmoqda. To'g'ri soliqlar bo'yicha tushumlar esa 2009 yilda 26,6 foizni tashkil qilgan bo'lsa, 2012 yilda bu ko'rsatkich 25,2 foizni tashkil etgan, 2009 yilga nisbatan mazkur ko'rsatkich 1,4 foizli punktga kamdir. Bu holatni ayrim to'g'ri soliqlar stavkalarining pasayishi natijasida yuz berganligi bilan izohlash mumkin.

Byudjet daromadlarida mol-mulk solig'i va resurs to'lovlari ham alohida ahamiyatga egadir. Mol-mulk solig'i va resurs to'lovlari bo'yicha tushumlar 2009 yilda 16,0 foizni tashkil qilgan bo'lsa, 2012 yilda bu ko'rsatkich 13,3 foizni tashkil etgan. Ustama foyda solig'i bo'yicha tushumlar 2009 yilda 2,3 foizni tashkil qilgan bo'lsa, 2012 yilda bu ko'rsatkich 1,2 foizni tashkil etgan holda kamayish tendentsiyasiga ega. Respublikamizda amalga oshirilayotgan izchil soliq-byudjet siyosati davlat byudjeti daromadlari qismida muayyan ulushni egallovchi byudjetning boshqa daromadlari dinamikasiga o'zining ta'sirini o'tkazgan. Masalan, 2009 yilda davlat byudjetida boshqa daromadlar 5,6 foizni tashkil qilgan bo'lsa, 2012 yilga kelib, ularning miqdori ortgan va 6,0 foizga teng bo'lgan.

Yuqoridagi jadval ma'lumotlari diagrammada quyidagi ko'rinishga ega bo'ladi:



1-diagramma. O'zbekiston Respublikasi davlat byudjeti daromadlari ko'rsatkichlarining dinamikasi (foizda)⁶

Yuqorida biz Respublikamiz byudjetida solikli to'lovlarning salmog'ini tahlil qildik, quyida esa Toshkent shahar Olmazor tumani byudjetida solikli to'lovlarning salmog'i tahlilini ko'rib o'tamiz:

2-jadval

Olmazor tumani byudjeti daromadlarining asosiy ko'rsatkichlari dinamikasi (foizda)⁷


Ko'rsatkichlar	2010 yil	2011 yil	2012 yil
Daromadlar - jami	100	100	100
To'g'ri soliqlar	41,9	44,9	45,5
Egri soliqlar	24,9	25,2	27,8
Mol-mulk solig'i va resurs to'lovlari	27,7	23,5	21,8
Boshqa daromadlar	5,5	6,4	4,9

Jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, yillar bo'yicha to'g'ri soliqlar mos ravishda 2010 yilda jami daromadlarga nisbatan 41,9 foizni, 2011 yilda 44,9 foizni tashkil etgan bo'lsa, 2012 yilda 45,5 foiz bo'lgan, ya'ni to'g'ri soliqlarning ulushi o'sish tendentsiyasiga ega. Bu holatni biz egri soliqlarda ham

⁶ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti qarorlariga ilovalar asosida tayyorlandi.

⁷ Olmazor tuman DSI hisobot ma'lumotlari.

ko'rishimiz mumkin, ya'ni 2010 yilda jami daromadlarga nisbatan salmog'i 24.9 foizni, 2011 yilda esa 25.2 foizni, 2012 yilda bu ko'rsatkich 27.8 foizni tashkil etgan holda o'sish tendentsiyasiga ega. Yuqoridagi jadval ma'lumotlari diagrammada quyidagi ko'rinishga ega bo'ladi:



2-diagramma. Olmazor tumani byudjeti daromadlarining asosiy ko'rsatkichlari dinamikasi (foizda)⁸

Diagramma ma'lumotlaridan ham ko'rinib turibdiki, mol-mulk solig'i va resurs to'lovlari yillar bo'yicha kamayish tendentsiyasiga ega bo'lib, jumladan, 2010 yilda jami daromadlarga nisbatan 27.7 foizni, 2011 yilda 23.5 foizni tashkil etgan bo'lsa, 2012 yilda esa 21.8 foizni tashkil etib, kamayishi kuzatilmoqda. Byudjetning boshqa daromadlari yillar bo'yicha nobarqarorlik tendentsiyasiga ega bo'lib, jumladan, 2010 yilda jami daromadlarga nisbatan 5.5 foizni tashkil etgan bo'lsa, 2011 yilda 6.4 foizni, 2012 yilda esa 4.9 foizni tashkil etgan. E'tiborli tomoni shundaki, Olmazor tumani byudjeti daromadlarida eng yuqori salmoq to'g'ri soliqlarga tegishlidir.

⁸ Olmazor tuman DSI hisobot ma'lumotlari.

3-jadval

**Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'ining
byudjet daromadlaridagi salmog'i dinamikasi⁹**

Ko'rsatkichlar	2009 yil	2010 yil	2011 yil	2012 yil
Davlat maqsadli jamg'armalarsiz daromadlari - jami	100	100	100	100
Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i	12,3	11,7	11,1	11,5

Jadval ma'lumotlarini tahlil qilar ekanmiz, jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'ining jami daromadlardagi salmog'i nobarqarorlik tendentsiyasiga ega bo'lib, 2009 yilda 12,3 foizni tashkil qilgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2010 yilda 11,7 foizni, 2011 yilda 11,1 foizni, 2012 yilda esa 11.5 foizni tashkil etmoqda. Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'ining ulushi 2009-2011 yillar oralig'ida 1.2 foizli punktga kamaygan bo'lsa, 2012 yilga kelib 0.4 foizli punktga oshganligini kuzatish mumkin.

Jadval ma'lumotlari asosida xulosa qilish mumkinki, jismoniy shaxslardan olinadigan soliqlar ichida eng asosiylaridan bo'lgan jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'ining kamayib borishi byudjet parametrlarida yaqqol namoyon bo'lmoqda. Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i miqdorining kamayishi soliq stavkalarining pasayishi bilan izohlash mumkin va bu o'z navbatida aholi real daromadlari summalarining hajmi oshgani, turmush darajasining yaxshilanganiga bir muncha asos bo'la oladi.

4-jadval

**Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'ining
Olmazor tumani byudjeti daromadlaridagi salmog'i dinamikasi¹⁰**

Ko'rsatkichlar	2010 yil	2011 yil	2012 yil
Daromadlar - jami	100	100	100
Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i	29.3	27.8	28.1

⁹ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti qarorlariga ilovalar asosida tayyorlandi.

Jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i 2010 yilda jami daromadlarga nisbatan 29.3 foizni, 2011 yilda 27,8 foizni tashkil etgan bo'lsa, 2012 yilda 28.1 foiz bo'lgan holda ularning ulushi kamayishini ko'rish mumkin. Mazkur holatni jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i stavkalarini tushirilishi bilan izohlash mumkin.

Jismoniy shaxslardan olinadigan yana bir soliq turi tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanuvchi jismoniy shaxslardan olinadigan qat'iy belgilangan soliq bo'lib, bu soliq ham byudjet daromadlarida o'ziga xos o'ringa ega. Buni quyidagi jadvalda ham ko'rish mumkin:

5-jadval

Tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanuvchi jismoniy shaxslardan olinadigan qat'iy soliqning byudjet daromadlaridagi salmog'i dinamikasi¹¹

Ko'rsatkichlar	2009 yil	2010 yil	2011 yil	2012 yil
Davlat maqsadli jamg'armalarsiz daromadlari - jami	100	100	100	100
Tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanuvchi jismoniy shaxslar-dan olinadigan qat'iy soliq	1,1	1,1	1,1	1,1

Jadval malumotlaridan ko'rinib turibdiki, tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanuvchi jismoniy shaxslardan olinadigan qat'iy soliqning davlat maqsadli jamg'armalarsiz daromadlaridagi ulushi 2010 yilda 1.1 foizini tashkil qilgan. Bu ko'rsatkich 2011 va 2012 yillarda ham o'zgarishsiz bo'lgan. Bu holat mazkur soliq bo'yicha tushumlar barqarorligini anglatadi.

¹⁰ Olmazor tuman DSI hisobot ma'lumotlari.

¹¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti qarorlariga ilovalar asosida tayyorlandi.

6-jadval

**Tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanuvchi jismoniy shaxslardan
olinadigan qat'iy soliqning Olmazor tuman byudjeti daromadlaridagi
salmog'i dinamikasi¹²**

Ko'rsatkichlar	2010 yil	2011 yil	2012 yil
Daromadlar - jami	100	100	100
Tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanuvchi jismoniy shaxslardan olinadigan qat'iy soliq	2.4	2.9	2.5

Jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanuvchi jismoniy shaxslardan olinadigan qat'iy soliq 2010 yilda jami daromadlarga nisbatan 2.4 foizni, 2011 yilda 2.9 foizni tashkil etgan bo'lsa, 2012 yilda 2.5 foiz bo'lgan holda uning salmog'ini nobarqarorligini ko'rish mumkin.

7-jadval

**Jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk solig'ining
byudjet daromadlaridagi salmog'i dinamikasi¹³**

Ko'rsatkichlar	2009 yil	2010 yil	2011 yil	2012 yil
Davlat maqsadli jamg'armalarsiz daromadlari - jami	100	100	100	100
Jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk solig'i	1.2	1.8	2.0	2.2

Jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk solig'i bo'yicha tushumlar salmog'i 2009 yilda byudjet solikli daromadlarining 1.2 foizini tashkil qilgan bo'lsa, 2010 yilga 1.8 foizni, 2011 yilda bu ko'rsatkich 2.0 foizni, 2012 yilda esa 2.2 foizni tashkil etgan. Demak soliq bo'yicha tushumlar salmog'i o'sish tendentsiyasiga ega. Bu raqamlar mol-mulkning soliq ob'ekti sifatida miqdor jihatdan oshganini ko'rsatadi.

¹² Olmazor tuman DSI hisobot ma'lumotlari.

¹³ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti qarorlariga ilovalar asosida tayyorlandi.

8-jadval

**Jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk solig'ining
Olmazor tuman byudjeti daromadlaridagi salmog'i dinamikasi¹⁴**

Ko'rsatkichlar	2010 yil	2011 yil	2012 yil
Daromadlar - jami	100	100	100
Jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk solig'i	0.8	0.9	1.4

Jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk solig'i jami daromadlarga nisbatan 2010 yilda 0.8 foizni, 2011 yilda 0.9 foizni tashkil etgan bo'lsa, 2012 yilda 1.4 foiz bo'lgan holda uning ulushi o'sganligini kuzatish mumkin.

9-jadval

**Jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig'ining
byudjet daromadlaridagi salmog'i dinamikasi¹⁵**

Ko'rsatkichlar	2009 yil	2010 yil	2011 yil	2012 yil
Davlat maqsadli jamg'armalarsiz daromadlari - jami	100	100	100	100
Jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig'i	1.1	1.2	1.3	1.4

Jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig'i haqida to'xtalib o'tadigan bo'lsak, soliq solish ob'ektlari oshganligi sababli bu soliq turi orqali byudjetga yo'naltirilgan tushum summasining salmog'i 2009 yilda davlat maqsadli jamg'armalarsiz daromadlarining 1.1 foizini tashkil etgan bo'lsa, 2010 yilda esa bu ko'rsatkich 1.2 foizni, 2011 yilda 1.3 foizni, 2012 yilda esa 1.4 foizni tashkil etmoqda. Demak tushum ko'rsatkichlari yillar bo'yicha o'sish tendentsiyasiga ega.

¹⁴ Olmazor tuman DSI hisobot ma'lumotlari.

¹⁵ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti qarorlariga ilovalar asosida tayyorlandi.

**Jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig'ining
Olmazor tuman byudjeti daromadlaridagi salmog'i dinamikasi¹⁶**

Ko'rsatkichlar	2010 yil	2011 yil	2012 yil
Daromadlar - jami	100	100	100
Jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig'i	3.5	3.8	4.1

Jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig'i 2010 yilda jami daromadlarga nisbatan 3.5 foizni, 2011 yilda 3.8 foizni tashkil etgan bo'lsa, 2012 yilda 4.1 foizni tashkil etgan holda ulushining o'sganligini ko'rish mumkin. Bu holatni yer solig'i stakalarining oshirilishi bilan izohlash mumkin.

Yuqoridagi mulohazalarimizdan ko'rinib turibdiki, jismoniy shaxslardan olinadigan soliqlar mamlakatimiz soliq tizimida byudjet manfaatlari nuqtai nazaridan olib qaralganda asosiy o'rinlarni egallamasada, lekin soliq tizimida o'z ta'siriga ega. Bundan ushbu soliqlar davlatning soliq siyosatini amalga oshirishda muhim qurol ekanligi yaqqol ko'rinib turibdi, albatta, bu soliqlarning soliq tizimida tutgan o'rni va ahamiyati to'g'risida fikr bildirilayotgan paytda faqat uni byudjet manfaatlari nuqtai nazaridan qarashning o'zi etarli emasdir.

¹⁶ Olmazor tuman DSI hisobot ma'lumotlari.

2-BOB. JISMONIY SHAXSLARDAN UNDIRILADIGAN SOLIQLARNI HISOBLASH USLUBIYATINING AMALIY ASOSLARI (OLMAZOR TUMAN DSI MA'LUMOTLARI ASOSIDA).

2.1. Jismoniy shaxslarning daromadlarini soliqqa tortish uslubiyatining amaldagi holati tahlili.

Ma'lumki, jismoniy shaxslar mehnat faoliyati evaziga daromad olish imkoniyatiga egadirlar. Daromadlar turli manbaalardan tashkil etilishi, ularning daromadlariga nisbatan chegaralangan soliq munosabatlarini joriy etilish zaruriyatini keltirib chiqaradi. Bu borada shuni ham ta'kidlab o'tish zarurki, jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i faqat byudjet daromadlarini oshirishga xizmat qilish bilan chegaralanmasligi, balki keng xalq ommasining turmush darajasini, daromad to'lov qobiliyatlarini oshirishga ham xizmat qilmog'i lozim. Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i respublika byudjetiga yo'naltirilib, umumdavlat soliqlari toifasiga kiradi.

Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i hozirgi kunda O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 167-196 moddalari asosida undiriladi va huquqiy tartibga solinadi.

Soliq kodeksining 167-moddasiga muvofiq, soliqni to'lovchilar bo'lib, soliq solinadigan daromadga ega bo'lgan jismoniy shaxslar hisoblanadilar.

Soliq solish ob'ekti bo'lib, quyidagi daromadlar hisoblanadi:

- O'zbekiston Respublikasi rezidentlarining O'zbekiston Respublikasidagi va undan tashqaridagi manbalardan olingan daromadlari;
- O'zbekiston Respublikasi norezidentlarining O'zbekiston Respublikasidagi manbalardan olingan daromadlari.


Soliq solinadigan baza jami daromaddan kelib chiqib soliq solishdan ozod qilingan daromadlar chegirilgan holda aniqlanadi. Agar soliq to'lovchining daromadidan uning ixtiyoriga ko'ra, sud yoki boshqa organlarning qaroriga binoan biron bir ushlab qolishlar amalga oshirilsa, bunday ushlab qolishlar soliq solinadigan bazani kamaytirmaydi. Jismoniy shaxsning chet el valyutasida

ifodalangan daromadlari daromadlar amalda olingan sanada O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan belgilangan kurs bo'yicha milliy valyutada qayta hisoblab chiqiladi.

Jismoniy shaxslarning jami daromadiga quyidagilar kiradi:

- mehnatga haq to'lash tarzidagi daromadlar;
- mulkiy daromadlar;
- moddiy naf tarzidagi daromadlar;
- boshqa daromadlar.

Buni quyidagi chizmada ham ko'rish mumkin:



2-chizma. Jismoniy shaxslarning jami daromadi tarkibi¹⁷

Ushbu kabi daromadlarning shakllanishi bilan soliq bazasi shakllanadi va soliq stavkasini qo'llash orqali byudjetga to'lanadigan summa hisoblab topiladi. O'zbekistonda jismoniy shaxslardan olinadigan soliq progressiv stavkalarda undirilib, uch pog'onali tarzda amalga oshiriladi. Buni quyida keltirilayotgan jadvalda ham ko'rish mumkin:

¹⁷ O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining tegishli moddalari asosida ishlab chiqildi.

**Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i
stavkalari miqdori¹⁸**

Soliq solinadigan daromad	Soliq stavkasi
eng kam ish haqining besh baravarigacha miqdorda	daromad summasining 8 foizi
eng kam ish haqining besh baravaridan (+1 so'm) o'n baravarigacha miqdorda	besh baravar miqdordan soliq + eng kam ish haqi miqdorining besh baravaridan oshadigan summadan 16 foiz
eng kam ish haqining o'n baravari (+1 so'm) va undan yuqori miqdorda	o'n baravar miqdordan soliq + eng kam ish haqi miqdorining o'n baravaridan oshadigan summadan 22 foiz

Bunda soliq solinadigan daromadlar guruhlariga bo'yicha soliq solish shkalasi yil boshiga - 2013 yil 1 yanvarga belgilangan eng kam ish haqi (79 590 so'm) miqdoridan kelib chiqib aniqlanadi va yil davomida eng kam ish haqi miqdori o'zgarganda qayta ko'rib chiqilmaydi.

Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i summasini hisoblab chiqarish maqsadida eng kam ish haqi miqdori yil boshidan ortib boruvchi yakun bilan (yil boshidan boshlab tegishli davrning har bir oyi uchun eng kam ish haqi summasi) hisobga olinadi.

Belgilangan stavkalardan kelib chiqib hisoblangan jismoniy shaxslarning daromadlariga soliq summasi, fuqarolarning shaxsiy jamg'arib boriladigan pensiya hisobvarag'iga o'tkaziladigan, jismoniy shaxslarning daromad solig'i solinadigan daromadlaridan 1 foizi miqdorida hisoblanadigan oylik majburiy badallar summasiga kamaytiriladi.


O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 31-bobida soliq bo'yicha imtiyozlar ko'zda tutilgan bo'lib, ularni quyidagicha guruhlash mumkin:

- jismoniy shaxslarning soliq solinmaydigan daromadlari;
- jismoniy shaxslarni soliq solishdan to'liq ozod qilish;

¹⁸ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2012 yil 25 dekabrda PQ-1887-son qaroridan olindi.

- jismoniy shaxslar soliq solishdan qisman (daromad olingan har bir oy uchun eng kam ish haqining to'rt baravari miqdoridagi daromadlar bo'yicha) ozod qilish.

Buni quyidagi chizmada ham ko'rish mumkin:



*3-chizma. Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i
bo'yicha imtiyozlarning guruhlanishi¹⁹*

Soliq kodeksining 179-moddasiga muvofiq jismoniy shaxslarning quyidagi daromadlariga soliq solinmaydi:

- moddiy yordam summolari: tabiiy ofat, boshqa favqulodda holatlar munosabati bilan beriladigan moddiy yordam summolari – to'laligicha; vafot etgan xodimning oila a'zolariga yoki oila a'zosi vafot etganligi munosabati bilan xodimga beriladigan moddiy yordam summolari – eng kam ish haqining yigirma baravarigacha miqdorda; boshqa hollarda – eng kam ish haqining o'n ikki baravarigacha miqdorda;
- yo'llanmalar qiymatini yuridik shaxslar tomonidan to'liq yoki qisman qoplash summolari, turistik yo'llanmalar bundan mustasno;
- O'zbekiston Respublikasi fuqarolarining O'zbekiston Respublikasidan tashqariga ishlash uchun yuborilishi munosabati bilan byudjet tashkilotlaridan chet el valyutasida olingan ish haqi summolari va boshqa summalar, qonun hujjatlarida belgilangan summalar doirasida;

¹⁹ O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining tegishli moddalari asosida ishlab chiqildi.

- vaqtinchalik bir martalik ishlarni bajarishdan olingan daromadlar, agar bunday ishlarga yollash vaqtinchalik bir martalik ish bilan ta'minlash markazlari ko'magida amalga oshirilayotgan bo'lsa;
- soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni to'laganidan keyin xususiy korxona mulkdori, fermer xo'jaligi boshlig'i ixtiyorida qoladigan foyda summasi;
- O'zbekiston Respublikasining davlat mukofotlariga va davlat pul mukofotlariga sazovor bo'lgan jismoniy shaxslar olgan bir yo'la beriladigan davlat pul mukofoti yoki shunga teng bahodagi esdalik sovg'alarining qiymati;
- xalqaro sport musobaqalarida sovrinli o'rinlarni egallaganligi uchun sportchilar olgan bir yo'la beriladigan pul mukofoti;
- donorlik uchun pul mukofotlari, shuningdek qon yiqqanlik uchun tibbiyot muassasalari xodimlari oladigan summalar;
- jismoniy shaxslarga xususiy mulk huquqi asosida tegishli bo'lgan mol-mulkni sotishdan olinadigan daromadlar;
- xalqaro hamda respublika tanlovlari va musobaqalarida olingan buyum tarzidagi sovrinlarning qiymati;
- yuridik shaxslardan olingan, soliq davrining oxiridagi holatga ko'ra belgilangan eng kam ish haqi miqdoridan kelib chiqqan holda hisoblab chiqarilgan, bir yil mobaynidagi eng kam ish haqining olti baravari miqdorigacha bo'lgan summadagi sovg'alarning qiymati;
- jismoniy shaxslardan meros yoki hadya tartibida, shuningdek tekin olingan pul va natura shaklidagi daromadlar, bundan fan, adabiyot va san'at asarlarining, adabiyot va san'at asarlari ijrochilarining, shuningdek kashfiyotlar, ixtirolar va sanoat namunalari mualliflarining merosxo'rlariga (huquqiy vorislariga) to'lanadigan pul mukofotlari mustasno;
- davlat zayomining obligatsiyalari bo'yicha yutuqlar, shuningdek O'zbekiston Respublikasining davlat qimmatli qog'ozlari bo'yicha foizlar, lotereya bo'yicha yutuqlar;
- olingan alimentlar;

- O'zbekiston Respublikasi fuqarolarining sug'urta bo'yicha oladigan summalari;

- ta'lim muassasalarida o'qiyotganlarga to'lanadigan, ularga qonun hujjatlarida davlat stipendiyalari uchun belgilangan miqdorlarda shu muassasalar tomonidan tayinlanadigan stipendiyalar;

- uy-joy-kommunal xizmatlariga haq to'lash bo'yicha qonun hujjatlariga muvofiq har oylik kompensatsiya pul to'lovlari;

- davlat pensiyalari;

- jamg'arib boriladigan majburiy pensiya badallari, ular bo'yicha foiz daromadlari, shuningdek jamg'arib boriladigan pensiya to'lovlari;

Soliq kodeksining 180-moddasiga muvofiq, soliq solishdan quyidagi jismoniy shaxslar to'liq ozod qilinadi:

- xorijiy davlatlar diplomatik vakolatxonalarining boshliqlari va xodimlari, konsullik muassasalarining mansabdor shaxslari, ularning o'zlari bilan birga yashaydigan oila a'zolari;

- O'zbekiston Respublikasi mudofaa, ichki ishlar, favqulodda vaziyatlar vazirliklarining, Milliy xavfsizlik xizmatining harbiy xizmatchilari, ichki ishlar organlari hamda bojxona organlarining oddiy xizmatchilari va boshliqlari tarkibiga kiruvchi shaxslar, shuningdek o'quv yoki sinov yig'inlariga chaqirilgan harbiy xizmatga majburlar – xizmatni o'tash (xizmat vazifalarini bajarish) munosabati bilan olgan pul ta'minoti, pul mukofotlari va boshqa to'lovlar summalari bo'yicha;

- prokuratura organlarining daraja unvonlariga ega bo'lgan xodimlari – ularning xizmat vazifalarini bajarish munosabati bilan olgan daromadlari bo'yicha;

- gastrol-kontsert faoliyati bilan shug'ullanish huquqini beruvchi litsenziyasi bo'lgan shaxslar – ushbu faoliyatdan olingan daromadlari bo'yicha;

- quyidagi jismoniy shaxslarning soliq solinadigan ish haqi va boshqa daromadlari summalari:

yosh oila a'zolari tomonidan yakka tartibda uy-joyni qurish, rekonstruktsiya qilish va sotib olish uchun yoki ko'p kvartirali uydagi kvartirani

rekonstruktsiya qilish va sotib olish uchun olingan ipoteka kreditlarini hamda ular bo'yicha hisoblangan foizlarni qoplash uchun yo'naltirilganda;

“Qishloq qurilish bank” aktsiyadorlik tijorat bankining kreditlari hisobiga qishloq joylarida namunaviy loyihalar bo'yicha yakka tartibda uy-joy quruvchi shaxslar tomonidan olingan ipoteka kreditlarini hamda ular bo'yicha hisoblangan foizlarni qoplash uchun yo'naltirilganda.

- fuqarolarning soliq solinadigan ish haqi va boshqa daromadlarining:

O'zbekiston Respublikasi oliy o'quv yurtlarida ta'lim olish uchun (o'zining o'qishi yoki yigirma olti yoshga to'lmagan farzandlarining o'qishi uchun) yo'naltiriladigan summolari;

- O'zbekiston Respublikasi Xalq bankidagi fuqarolarning shaxsiy jamg'arib boriladigan pensiya hisobvaraqlariga ixtiyoriy ravishda yo'naltiriladigan summolari.

Soliq kodeksining 180-moddasiga muvofiq, quyidagi jismoniy shaxslar soliq solishdan qisman (daromad olingan har bir oy uchun eng kam ish haqining to'rt baravari miqdoridagi daromadlar bo'yicha) ozod qilinadi:

- “O'zbekiston Qahramoni”, Sovet Ittifoqi Qahramoni, Mehnat Qahramoni unvonlariga sazovor bo'lgan shaxslar, uchala darajadagi Shuhrat ordeni bilan taqdirlangan shaxslar, urush nogironlari yoxud 1941-1945 yillardagi urush davrida yoki harbiy xizmatning boshqa majburiyatlarini bajarishda yaralanganligi, kontuziya bo'lganligi yoki shikastlanganligi oqibatida yoxud frontda bo'lish bilan bog'liq kasallik tufayli nogiron bo'lib qolgan harbiy xizmatchilar jumlasidan bo'lgan boshqa nogironlar, sobiq partizanlar jumlasidan bo'lgan nogironlar, shuningdek pensiya ta'minoti bo'yicha mazkur toifadagi harbiy xizmatchilarga tenglashtirilgan boshqa nogironlar;

- xizmatni harakatdagi armiya tarkibiga kirgan harbiy qismlar, shtablar va muassasalarda o'tagan harbiy xizmatchilar, sobiq partizanlar jumlasidan bo'lib, 1941-1945 yillardagi urush, sobiq SSSRni himoya qilish bo'yicha boshqa jangovar operatsiyalarning qatnashchilari, 1941-1945 yillardagi urush davri mehnat frontining faxriylari va kontsentratsion lagerlarning sobiq yosh tutqinlari;

- Leningrad shahrida 1941 yil 8 sentyabrdan 1944 yil 27 yanvargacha qamal davrida ishlagan fuqarolar;

- ichki ishlar organlarining boshliqlari va oddiy xizmatchilari jumlasidan bo'lib, xizmat vazifalarini bajarishda yaralanganligi, kontuziya bo'lganligi yoki shikastlanganligi oqibatida nogiron bo'lib qolganlar;

- bolalikdan nogiron bo'lib qolganlar, shuningdek I va II guruh nogironlari;

- o'n va undan ortiq bolasi bor ayollar;

- sobiq SSSRni himoya qilish yoxud harbiy xizmatning boshqa vazifalarini bajarish paytida yaralanganligi, kontuziya bo'lganligi yoxud shikastlanganligi oqibatida yoki frontda bo'lish bilan bog'liq kasallik tufayli halok bo'lgan harbiy xizmatchilarning ota-onalari va rafiqalari;

- xizmatni Afg'oniston Respublikasida va jangovar harakatlar olib borilgan boshqa mamlakatlarda vaqtincha bo'lgan qo'shnlarning cheklangan kontingenti tarkibida o'tagan harbiy xizmatchilar hamda o'quv va sinov yig'inlariga chaqirilgan harbiy xizmatga majburlar;

- Chernobil AESdagi avariya oqibatida jabrlanganlar;

- ikki va undan ortiq o'n olti yoshga to'lmagan bolalari bor yolg'iz onalar;

- ikki va undan ortiq o'n olti yoshga to'lmagan bolalari bor va boquvchisini yo'qotganlik uchun pensiya olmaydigan beva ayol va beva erkaklar;

- bolaligidan nogiron bo'lgan, doimiy parvarishni talab qiladigan farzandi bilan birga yashab, uni tarbiyalayotgan ota-onadan biri;

Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'ini hisoblab chiqarish va ushlab qolish soliq solinadigan baza hamda stavkalardan kelib chiqqan holda daromad hisoblanishiga qarab, yil boshidan ortib boruvchi yakun bo'yicha har oyda jismoniy shaxsning asosiy ish joyi bo'yicha soliq agenti tomonidan amalga oshiriladi.

Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i quyidagicha hisoblanadi: masalan, jismoniy shaxsga 2013 yilning yanvar va fevral oylari uchun 800 000 so'm (400 000 + 400 000) ish haqi hisoblangan. Yanvar oyi uchun 32 164 so'm

soliq ushlangan. Jismoniy shaxsdan fevral oyi uchun ushlanishi lozim bo'lgan daromad solig'i summasi quyidagicha topiladi:

1. Demak, soliq solinadigan daromad - 800 000 so'mni tashkil etadi.

2. Yanvar va fevral oylari uchun eng kam ish haqi miqdori 159 180 so'm (79590 + 79590)ni tashkil etadi.

$$159\,180 \times 5 \text{ (karra)} = 795\,900$$

$$159\,180 \times 10 \text{ (karra)} = 1\,591\,800$$

Daromad solig'ini hisoblaymiz:

$$(795\,900 \times 8\% = 63\,672 \text{ so'm})$$

$$63\,672 + ((800\,000 - 795\,900) \times 16\% = 63\,672 + 656 = 64\,328$$

3. Fevral oyi uchun ushlanishi lozim bo'lgan soliq summasi 32 164 (64328 – 32 164) so'mni tashkil etadi.

To'lov manbaida soliq solish soliq solinadigan baza va belgilangan stavkadan kelib chiqqan holda soliq agentlari tomonidan amalga oshiriladi. Soliq agentlari:

- soliq davri tugaganidan so'ng o'ttiz kun ichida davlat soliq xizmati organlariga daromadlar olgan jismoniy shaxslar to'g'risida, asosiy ish joyi bo'yicha daromadlar olgan jismoniy shaxslar bundan mustasno, O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi va O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan belgilanadigan shaklda ma'lumotnoma taqdim etishi shart;

- yilning har choragida, hisobot davridan keyingi oyning 25-kuniga qadar, yil yakunlari bo'yicha esa yillik moliya hisobotini taqdim etish muddatida davlat soliq xizmati organlariga hisoblangan va amalda to'langan daromadlar summolari hamda jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'ining ushlab qolingani summolari to'g'risidagi ma'lumotlarni O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi va O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan belgilangan shaklda taqdim etishi shart.

To'lov manbaida jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'ining hisoblab chiqarilgan summasi byudjetga soliq agenti tomonidan quyidagi muddatlarda to'lanadi:

- pul mablag'larini olish uchun xizmat ko'rsatuvchi bankka hujjatlarni taqdim etish bilan bir vaqtda;
- to'lov natura holida amalga oshirilgan oy tugaganidan keyin besh kun ichida, agar bunday to'lovga qonun hujjatlarida ruxsat berilgan bo'lsa.

2.2. Jismoniy shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliqni hisoblash uslubiylatining amaldagi holati tahlili.

Mol-mulk solig'i mavjud va moddiy ko'rinishdagi, ya'ni mulk shaklida bo'lgan ob'ektlarga nisbatan qo'llaniladi. Bu soliq turi iqtisodiy mohiyatiga ko'ra to'g'ri soliq sifatida ham amal qiladi. Jismoniy shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq 1993 yil 28 dekabrda "Jismoniy shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq to'g'risida"gi Qonuni asosida joriy etilgan bo'lib, hozirgi kunda O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 272-277 moddalari asosida undiriladi va huquqiy tartibga solinadi.

Soliq kodeksining 272-moddasiga muvofiq, mulkida soliq solinadigan mol-mulki bo'lgan jismoniy shaxslar, shu jumladan chet el fuqarolari, agar O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalarida boshqacha qoida nazarda tutilmagan bo'lsa, shuningdek yuridik shaxs tashkil etgan va tashkil etmagan holda tuzilgan dehqon xo'jaliklari jismoniy shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq to'lovchilaridir. Bu erda agar ko'chmas mulk mulkdorining joylashgan yerini aniqlash imkoni bo'lmasa, bu mol-mulk qaysi shaxsning egaligida va (yoki) foydalanishida bo'lsa, o'sha shaxs soliq to'lovchidir.

Soliq solish ob'ekti bo'lib, O'zbekiston Respublikasi hududida joylashgan uy joylar, kvartiralar, dala hovli imoratlari, garajlar va boshqa imoratlar, joylar, inshootlar hisoblanadi.

Quyida keltirilayotgan jadvalda Olmazor tumani hududida 2013 yil 1 yanvar holatiga ko'ra jismoniy shaxslarga tegishli bo'lgan mol-mulk solig'ini to'lovchilarning hisobga olinishi, soliqqa tortilishi va imtiyozlarning qo'llanilishi to'g'risida ma'lumotlar berilgan:

**Olmazor tumanida jismoniy shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq
to'lovchilarning soliqqa tortilishi va imtiyozlar qo'llanilishi
to'g'risida ma'lumot²⁰**

2012 yilda jami hisobga olinganlar soni	Imtiyoz berilgan ob'ektlar			Soliqqa tortilgan ob'ektlar soni		
	xo'jalik soni	mulk qiymati (mln. so'm)	soliq summasi	xo'jalik soni	mulk qiymati (mln. so'm)	soliq summasi
53626	16424	139119.9	795150	37202	382080	2512289

Jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, Olmazor tumanida 2013 yil 1 yanvar holatiga ko'ra jami hisobga olingan xo'jaliklar soni 53626 tani tashkil etmoqda. Shundan, imtiyozga ega bo'lgan ob'ektlar soni 16424 tani tashkil etgan holda, mol-mulk solig'ining summasi esa mazkur ob'ektlar bo'yicha 795150.0 ming so'mni tashkil etmoqda. Soliqqa tortilgan ob'ektlar soni esa 37202 tani tashkil etgan holda, mol-mulk solig'ining summasi 2512289.0 ming so'mni tashkil etmoqda.

Soliq kodeksining 274-moddasiga muvofiq, ko'chmas mulkka bo'lgan huquqlarni davlat ro'yxatidan o'tkazuvchi organ tomonidan belgilanadigan soliq solish ob'ektlarining inventarizatsiya qiymati to'lovchilar uchun soliq solinadigan bazadir.

Jismoniy shaxslarning mol-mulkini baholash bo'yicha vakolatli organ tomonidan aniqlangan soliq solish ob'ektining bahosi mavjud bo'lmagan taqdirda, mol-mulkning qonun hujjatlari bilan belgilanadigan shartli qiymati soliq solinadigan bazadir. Bitta jismoniy shaxs bir nechta soliq solish ob'ekti bo'yicha to'lovchi bo'lgan taqdirda, soliq solinadigan baza har bir ob'ekt bo'yicha alohida-alohida hisoblab chiqiladi.

²⁰ Olmazor tuman DSI hisobot ma'lumotlaridan olindi.

Jismoniy shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq stavkalari O'zbekiston Respublikasi Prezidenti qarori asosida belgilanadi. 2013 yil uchun jismoniy shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq stavkalari quyidagi jadvalda berilgan:

13-jadval

Jismoniy shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq stavkalari²¹

Soliq solinadigan ob'ektlarning nomi	Mol-mulkning inventarizatsiya qiymatiga nisbatan soliq stavkasi (%da)
Turar joylar, kvartiralar (shahar joylarida umumiy maydoni 200 kv.m. ortiq bo'lganlardan tashqari) dala hovli, garajlar va boshqa imoratlar, xonalar va inshootlar	1.04
Shahar joylarida joylashgan turar joylar, kvartiralarining umumiy maydoni:	
200 kv.m. ortiq 500 kv.m. gacha	1.25
500 kv.m. ortiq	1.55

Jismoniy shaxslar mol-mulkini baholash bo'yicha organlar belgilagan inventarizatsiya qiymati bo'lmasa soliq undirish uchun Toshkent shahri va viloyat markazlarida - 18480.0 ming so'm, boshqa shaharlar va qishloq joylarda - 8030.0 ming so'm miqdoridagi mol-mulkning shartli qiymati qabul qilinadi.

Endi imtiyozlar xususida fikrimizni davom ettiramiz. O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 275-moddasi jismoniy shaxslardan olindigan mol-mulk solig'i bo'yicha imtiyozlarga ega bo'lgan shaxslar doirasini tartibga soladi. Uning tahlili shuni ko'rsatmoqdaki, qonun chiqaruvchi har qanday mol-mulk solig'idan ozod etiladigan jismoniy shaxslarning qator toifalarini ajratadi va soliqdan imtiyoz beradi.

Yuridik shaxslardan olinadigan mol-mulk solig'idan farqli ravishda O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksida mahalliy davlat hokimiyati

²¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2012 yil 25 dekabrda PQ-1887-son qaroridan olindi.

organlarining ushbu soliqning to'lovchilari bo'lmish jismoniy shaxslar uchun qo'shimcha imtiyozlarni berish huquqi nazarda tutilmagan.

Jismoniy shaxslar uchun mol-mulk solig'idan soliq kodeksida imtiyozlar ko'zda tutilgan bo'lib, 275-moddasiga muvofiq quyidagilarning mulkida bo'lgan mol-mulkka jismoniy shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq solinmaydi:

- “O'zbekiston Qahramoni”, Sovet Ittifoqi Qahramoni, Mehnat Qahramoni unvonlariga sazovor bo'lgan, uchala darajadagi Shuhrat ordeni bilan taqdirlangan fuqarolarning. Mazkur imtiyoz tegishincha “O'zbekiston Qahramoni” unvoni berilganligi to'g'risidagi guvohnoma, Sovet Ittifoqi Qahramoni, Mehnat Qahramoni daftarchalari, orden daftarchasi yoki mudofaa ishlari bo'yicha bo'limning ma'lumotnomasi asosida beriladi;

- 1941–1945 yillardagi urush nogironlari va qatnashchilari hamda doirasi qonun hujjatlari bilan belgilanuvchi ularga tenglashtirilgan shaxslarning. Mazkur imtiyoz urush nogironining tegishli guvohnomasi yoki mudofaa ishlari bo'yicha bo'limning yoxud boshqa vakolatli organning ma'lumotnomasi asosida, boshqa nogironlarga - Nogironning imtiyozlarga bo'lgan huquqi to'g'risidagi guvohnoma asosida beriladi;

- o'n nafar va undan ortiq bolalari bor ayollarning. Mazkur imtiyozni berish uchun fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organining bolalar borligini tasdiqlovchi ma'lumotnomasi asos bo'ladi;

- Chernobil AESdagi avariya oqibatlarini tugatishda ishtirok etganlik uchun imtiyozlar oladigan fuqarolarning (shu jumladan u erga vaqtincha yo'llangan yoki xizmat safariga yuborilgan shaxslarning). Mazkur imtiyoz tegishincha tibbiy-mehnat ekspert komissiyasining ma'lumotnomasi, nogironning maxsus guvohnomasi, Chernobil AESdagi avariya oqibatlarini tugatish ishtirokchisining guvohnomasi, vakolatli davlat organlari tomonidan berilgan, imtiyozlar berish uchun asos bo'ladigan boshqa hujjatlar asosida beriladi;

- qonun hujjatlarida belgilangan soliq solinmaydigan maydon o'lchami doirasida pensionerlarning;

Mulkida soliq solinadigan mol-mulk bo'lgan pensionerlar uchun mol-mulk solig'i bo'yicha soliq solinmaydigan eng kam miqdor umumiy maydonning 60 kv. metri hajmida belgilanadi.

Mulkida soliq solinadigan mol-mulk bo'lgan pensionerlar uchun jismoniy shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliqni hisoblab chiqarganda mol-mulk solig'i soliq solinmaydigan eng kam miqdordan oshadigan maydondan to'lanadi.

Bunda soliq solinmaydigan eng kam miqdor summasini aniqlash uchun mol-mulkning umumiy inventarizatsiya qiymati mol-mulk maydonining umumiy miqdoriga bo'linadi va 60 kv. metrga (soliq solinmaydigan eng kam miqdor) ko'paytiriladi. Olingan natija mol-mulkning umumiy inventarizatsiya qiymatidan chiqariladi.

Pensionerlar uchun byudjetga to'lanadigan mol-mulk solig'i summasi quyidagi formula yordamida aniqlanadi:

$$(Q_{um.} - (Q_{um.}/S_{um.}) * 60 \text{ kv. metr}) * M$$

bu erda:

$S_{um.}$ - mol-mulk egallagan maydonining umumiy miqdori;

$Q_{um.}$ - mol-mulkning umumiy inventarizatsiya qiymati;

M - mol-mulk solig'i stavkasi.

Masalan, mulk huquqida pensionerga tegishli bo'lgan mol-mulkning umumiy inventarizatsiya qiymati 900 000 so'mni tashkil etadi, mol-mulk umumiy maydonining miqdori - 75 kv.metr, bu holda byudjetga to'lanadigan soliq summasi:

$$[900\,000 - (900\,000 / 75) * 60] * 1.04\% = 1872 \text{ so'mni tashkil etadi.}$$

- I va II guruh nogironlarining;
- sobiq SSSRni, O'zbekiston Respublikasining konstitutsiyaviy tuzumini himoya qilish yoki harbiy xizmatning yoxud ichki ishlar organlaridagi xizmatning boshqa majburiyatlarini bajarish chog'ida yaralanganligi, kontuziya

bo'lganligi yoki shikastlanganligi oqibatida yoxud frontda bo'lish bilan bog'liq kasallik tufayli halok bo'lgan harbiy xizmatchilar hamda ichki ishlar organlari xodimlari ota-onalarining va beva xotinlarining (beva erlarining).

Belgilangan mazkur imtiyozlar mulkdorning tanlashiga binoan faqat bir mol-mulk ob'ektiga taalluqli bo'ladi. Imtiyozlar jismoniy shaxslar tomonidan tadbirkorlik faoliyati uchun foydalaniladigan yoxud yuridik shaxsga yoki yakka tartibdagi tadbirkorga ijaraga berilgan soliq solish ob'ektlariga nisbatan qo'llanilmaydi. Jismoniy shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliqni hisoblab chiqarish soliq to'lovchining yashash joyidan qat'i nazar, soliq solish ob'ekti joylashgan erdagi davlat soliq xizmati organlari tomonidan ko'chmas mulkka bo'lgan huquqlarni davlat ro'yxatidan o'tkazuvchi organning ma'lumotlari asosida amalga oshiriladi. Jismoniy shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq summasi mol-mulkning 1 yanvarga bo'lgan holatiga ko'ra inventarizatsiya qiymatidan va belgilangan stavkadan kelib chiqqan holda hisoblab chiqariladi.

Jismoniy shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliqni to'lash to'g'risidagi to'lov xabarnomasi soliq to'lovchilarga davlat soliq xizmati organi tomonidan har yili 1 maydan kechiktirmay topshiriladi.

Jismoniy shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliqni soliq davri uchun bir yilda bir marta amalga oshiriladi, ya'ni 15 oktyabrga qadar. Agar soliq to'lovchi tomonidan ortiqcha summalar to'langan bo'lsa, soliq va yig'imga bo'yicha qarzlarni mavjud bo'lmasa, ushbu summalar uning yozma arizasiga ko'ra o'ttiz kun ichida soliq to'lovchiga qaytariladi yoki bo'lg'usi to'lovlar hisobiga qayd etiladi.

2.3. Jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig'ini hisoblash uslubiylatining amaldagi holati tahlili.

Ma'lumki, O'zbekiston Respublikasida yerdan foydalanish va yerga egalik qilish pullidir. Jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig'i davlat byudjeti va soliq to'lovlari o'rtasidagi iqtisodiy munosabatlarni ifodalaydi. Shuning uchun ham u iqtisodiy kategoriyalar turkumiga kiradi. Yer solig'ining iqtisodiy

mohiyati, mazmunini ochish uchun davlat byudjeti va soliq to'lovchilar o'rtasidagi yuzaga keladigan ko'p qirrali munosabatlarning xarakterini o'rganish lozim. U ayrim to'g'ri soliqlardan farqli o'laroq, mahalliy soliqlar guruhiga kiradi.

Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida yer solig'i davlatning ijtimoiy-iqtisodiy siyosatini yurgizishda ham muhim o'rin tutadi. 1993 yil 6 mayda "Yer solig'i to'g'risida"gi Qonunning qabul qilinishi yerga bo'lgan egalik munosabatlarini tubdan o'zgartirdi. Aholining keng qatlami yerdan foydalanishda eng asosiy maqsadi yerning unumdorligini oshirish, yerga to'g'ri ishlov berish va yerdan olingan mahsulotlarni halq manfaatlarining qondirilishiga jalb etish bo'lib hisoblanadi.

Erdan unumli foydalanish, uni hosildorlikdagi mavqeini oshirish asosan soliq munosabatlari orqali amalga oshirilishi bu borada oqilona soliq siyosatining yurgizilishini taqazo etadi. Lekin yer solig'ini joriy etish yer qonunchiligi bilan belgilanadi. Chunki yer qonuniga muvofiq yerlarni toifalarga bo'lish va unda asosan yer unumdorligining e'tiborga olinishi yerga nisbatan o'ziga xos soliq munosabatlarini yurgizishni taqazo etadi.

Yuqorida ta'kidlaganimizdek yer solig'i O'zbekiston Respublikasida 1993 yil 6 maydagi "Yer solig'i to'g'risida"gi Qonuni asosida 1994 yildan boshlab undirila boshlandi. Hozirgi kunda jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig'i O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 287-294 moddalari asosida undiriladi va huquqiy tartibga solinadi.

Mazkur kodeksning 287-moddasiga muvofiq, mulk huquqi, egalik qilish huquqi, foydalanish huquqi yoki ijara huquqi asosida yer uchastkalariga ega bo'lgan jismoniy shaxslar, shuningdek yuridik shaxs tashkil etgan va tashkil etmagan holda tuzilgan dehqon xo'jaliklari yer solig'ini to'lovchilardir.

Soliq kodeksining 288-moddasiga muvofiq, jismoniy shaxslar uchun quyidagi yer uchastkalari soliq solish ob'ekti hisoblanadi:

- dehqon xo'jaligi yuritish uchun meros qilib qoldiriladigan umrbod egalik qilishga berilgan yer uchastkalari;

- yakka tartibda uy-joy qurilishi uchun meros qilib qoldiriladigan, umrbod egalik qilishga berilgan yer uchastkalari;
- jamoa bog'dorchiligi, uzumchiligi va polizchiligini yuritish uchun berilgan, shuningdek yakka tartibdagi garajlar egallagan yer uchastkalari;
- xizmat yuzasidan berilgan chek yerlar;
- meros bo'yicha, hadya qilinishi yoki olinishi natijasida uy-joy va imoratlar bilan birgalikda mulk huquqi, egalik qilish va foydalanish huquqi ham o'tgan yer uchastkalari;
- qonun hujjatlarida belgilangan tartibda mulk qilib olingan yer uchastkalari;
- tadbirkorlik faoliyati yuritish uchun foydalanishga yoki ijaraga berilgan yer uchastkalari.

Ko'p kvartirali uylar egallagan yer uchastkalari soliq solish ob'ekti bo'lmaydi.

Soliq solinadigan baza bo'lib, ko'chmas mulkka bo'lgan huquqlarni davlat ro'yxatidan o'tkazishni amalga oshiruvchi organning yer uchastkalarining maydoniga doir ma'lumotlari soliq solinadigan bazadir.

Quyida keltirilayotgan jadvalda Olmazor tumani hududida 2013 yil 1 yanvar holatiga ko'ra jismoniy shaxslarga tegishli yer uchastkasi mavjud bo'lgan xo'jaliklarning hisobga olinishi, soliqqa tortilishi va imtiyozlarning qo'llanilishi to'g'risida ma'lumotlar berilgan:

14-jadval

Olmazor tumanida jismoniy shaxslarga tegishli yer uchastkasi mavjud bo'lgan xo'jaliklarning hisobga olinishi va soliqqa tortilishi to'g'risida ma'lumot²²

2012 yilda hisobga olingan yer uchastkasi	Imtiyoz berilgan			Soliqqa tortilgan		
	xo'jalik soni	umumiy yer maydoni,	soliq summasi	xo'jalik soni	umumiy yer maydoni,	soliq summasi

²² Olmazor tuman DSI hisobot ma'lumotlari.

bor xo'jaliklar soni		ga			ga	
21494	2213	114.7	238256	19281	1012.9	2537536.0

Jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, Olmazor tumanida 2013 yil 1 yanvar holatiga ko'ra jami hisobga olingan yer uchastkasi bor xo'jaliklar soni 21494 tani tashkil etmoqda. Shundan, imtiyozga ega bo'lgan mulklar soni 2213 tani tashkil etgan holda, yer solig'ining summasi esa mazkur yer maydonlari bo'yicha 238256.0 ming so'mni tashkil etmoqda. Soliqqa tortiladigan xo'jaliklar soni esa 19281 tani tashkil etgan holda, yer solig'ining summasi 2537536.0 ming so'mni tashkil etmoqda.

Jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig'i stavkalari O'zbekiston Respublikasi Prezidenti qarori asosida belgilanadi. 2013 yil uchun jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig'i stavkalari quyidagi jadvalda berilgan:

15-jadval

Toshkent shahrida yer uchastkalaridan foydalanganlik uchun yer solig'i stavkalari²³

Zona	Undiriladigan yer solig'i stavkalari
	fuqarolardan yakka tartibda uy-joy qurish uchun berilgan 1 kv.m. uchun, so'mda
1	106,8
2	135,6
3	164,3
4	193,1
5	221,8
6	250,6
7	279,3
8	308,1
9	336,8
10	365,6

²³ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2012 yil 25 dekabrda PQ-1887-son qaroridan olindi.

11	394,3
12	423,1
13	451,8
14	480,6

Soliq kodeksining 291-moddasiga muvofiq tadbirkorlik faoliyatida foydalaniladigan yoxud uylar, dala hovli imoratlari, yakka tartibdagi garajlar va boshqa imoratlar, inshootlar, joylar yuridik shaxsga yoki yakka tartibdagi tadbirkorga ijaraga berilganda yer uchastkalari uchun yer solig'i jismoniy shaxslardan yuridik shaxslardan olinadigan yer solig'ini to'lash uchun belgilangan stavkalar bo'yicha undiriladi hamda ularga Soliq kodeksida nazarda tutilgan imtiyozlar tatbiq etilmaydi.

Jismoniy shaxslar uchun yer solig'idan Soliq kodeksida imtiyozlar ko'zda tutilgan bo'lib, 290-moddasiga muvofiq yer solig'idan quyidagi jismoniy shaxslar ozod qilinadilar:

- yaylov chorvachiligining cho'ponlari, yilqiboqarlari, mexanizatorlari, veterinariya vrachlari va texniklari, boshqa mutaxassislari va ishchilari;
- “O'zbekiston Qahramoni”, Sovet Ittifoqi Qahramoni, Mehnat Qahramoni unvonlariga sazovor bo'lgan, uchala darajadagi Shuhrat ordeni bilan taqdirlangan fuqarolar. Mazkur imtiyoz “O'zbekiston Qahramoni” unvoni berilganligi to'g'risidagi guvohnoma, Sovet Ittifoqi Qahramoni va Mehnat Qahramoni daftarchalari, orden daftarchasi yoki mudofaa ishlari bo'limining ma'lumotnomasi asosida beriladi;
- 1941-1945 yillardagi urush nogironlari va qatnashchilari hamda qonun hujjatlarida belgilanadigan doiradagi ularga tenglashtirilgan shaxslar. Mazkur imtiyoz urush nogironining tegishli guvohnomasi yoki mudofaa ishlari bo'limining yoxud boshqa vakolatli organning ma'lumotnomasi asosida, boshqa nogironlarga - Nogironning imtiyozlarga bo'lgan huquqi to'g'risidagi guvohnoma asosida beriladi;
- I va II guruh nogironlari. Mazkur imtiyoz pensiya guvohnomasi yoki tibbiy-mehnat ekspert komissiyasining ma'lumotnomasi asosida beriladi;

- yolg'iz pensionerlar. Yolg'iz yoki voyaga etmagan bolalari bilan yoxud nogiron bolasi bilan alohida uyda, kvartirada yoki yotoqxonada birga yashovchi pensionerlar soliq solish maqsadida yolg'iz pensionerlar deb tushuniladi. Mazkur imtiyoz pensiya guvohnomasi va (yoki) tuman (shahar) ijtimoiy ta'minot bo'limining ma'lumotnomasi asosida beriladi;

- boquvchisini yo'qotgan ko'p bolali oilalar. Ota-onasidan biri yoki ota-onasi vafot etgan hamda oilada o'n olti yoshga to'lmagan beshta va undan ortiq bolalari bo'lgan oilalar soliq solish maqsadida boquvchisini yo'qotgan ko'p bolali oilalardir. Mazkur imtiyoz tuman (shahar) ijtimoiy ta'minot bo'limining ma'lumotnomasi asosida beriladi;

- Chernobil AESdagi avariya oqibatlarini tugatishda ishtirok etgan shaxslar. Mazkur imtiyoz tibbiy-mehnat ekspert komissiyasining ma'lumotnomasi, nogironning maxsus guvohnomasi, Chernobil AESdagi avariya oqibatlarini tugatish ishtirokchisining guvohnomasi, shuningdek vakolatli organlar tomonidan berilgan va imtiyozlar berish uchun asos bo'ladigan boshqa hujjatlar asosida beriladi;

- shaxsiy pensiya tayinlangan shaxslar;

- ko'chirib keltirilgan fuqarolar kelib joylashgan yer uchastkalari bo'yicha - yer uchastkalari berilgan paytdan e'tiboran besh yilgacha;

- shaxslar - ularga yakka tartibdagi uy-joy qurilishi va dehqon xo'jaligi yuritish uchun qonun hujjatlarida belgilangan normalar doirasida berilgan yer uchastkalari bo'yicha - yer uchastkasi berilgan oydan keyingi oydan e'tiboran ikki yil muddatga.

Yer solig'ini hisoblab chiqarish davlat soliq xizmati organlari tomonidan amalga oshiriladi. Davlat soliq xizmati organlari yer solig'ini to'lovchilar bo'lgan jismoniy shaxslarning hisobini muntazam yuritadi.

Yer solig'i summasi va uni to'lash muddatlari ko'rsatilgan to'lov xabarnomasi jismoniy shaxslarga davlat soliq xizmati organlari tomonidan har yili 1 maydan kechiktirmay topshiriladi. Yil mobaynida yer uchastkasi maydoni o'zgarganda va imtiyozlarga bo'lgan huquqlar vujudga kelganida (bekor

qilinganda) davlat soliq xizmati organlari mazkur o'zgarishlardan keyin bir oy ichida yer solig'ini qayta hisob-kitob qilishlari hamda soliq to'lovchiga yer solig'i summasi va uni to'lash muddatlari ko'rsatilgan yangi yoki qo'shimcha to'lov xabarnomasini taqdim etishlari kerak.

Yer solig'i yer uchastkasining mulkdori, yerga egalik qiluvchi, yerdan foydalanuvchi yoki ijarachining yashash joyidan qat'i nazar, yer uchastkasi joylashgan hududdagi tuman yoki shaharning mahalliy byudjetiga to'lanadi.

Yil mobaynida ajratilgan yer uchastkalari uchun yer solig'i jismoniy shaxslar tomonidan yer uchastkasi ajratilganidan keyingi oydan e'tiboran to'lanadi.

Yer uchastkasi maydoni kamaytirilgan taqdirda, yer solig'ini to'lash yer uchastkasi kamaytirilgan oydan e'tiboran to'xtatiladi (kamaytiriladi). Yer solig'i bo'yicha imtiyozlar belgilangan taqdirda, bu soliq imtiyoz huquqi vujudga kelgan oydan e'tiboran to'lanmaydi.

Yer solig'i bo'yicha imtiyozlarga bo'lgan huquqlar bekor qilingan taqdirda, bu soliq mazkur huquq bekor qilinganidan keyingi oydan e'tiboran to'lana boshlaydi.

Belgilangan tartibda berilgan yer uchastkalari uchun yer solig'i yer uchastkasidan foydalanish faktidan qat'iy nazar, jismoniy shaxslar tomonidan to'lanadi.

Soliq davri uchun yer solig'i to'lash jismoniy shaxslar tomonidan bir yilda bir marta amalga oshiriladi, ya'ni hisobot yilining 15 oktyabriga qadar.

3-BOB. JISMONIY SHAXSLARDAN UNDIRILADIGAN SOLIQLARNI HISOBLASH USLUBIYATINI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI.

3.1. Jismoniy shaxslardan undiriladigan soliqlarni hisoblash tartibini takomillashtirishda xorijiy davlatlar tajribalaridan foydalanish istiqbollari.

Federativ va unitar davlatlar byudjet tizimining tuzilishi va byudjetlararo munosabatlar, yani mamuriy va byudjet tizimining darajalari, moliyaviy resurslarning byudjelararo qayta taqsimlash mexanizmlari va byudjet tizimini turli pog'onalarida zayom mablag'larining jalb qilinishi o'tish davri xususan O'zbekiston uchun muhim ahamiyat kasb etadi.

Rivojlangan mamlakatlarda byudjetga tushadigan soliq tushumlari umumiy miqdoridagi fuqarolar daromad solig'ining ulushi quyidagicha: AQShda – 39 foiz, Buyuk Britaniyada – 24,8 foiz, Shveytsariya va Shvetsiyada – 35 foiz, Frantsiyada – 14 foiz (Frantsiyada byudjet daromad manbai bo'lib asosan daromaddan olinadigan soliq emas, balki iste'molga solinadigan hisoblanadi). Iqtisodiy va rivojlanish bo'yicha hamkorlik tashkiloti qatnashchisi bo'lgan mamlakatlarda aholidan olinadigan daromad solig'i umumiy soliqlar tushumida o'rtacha 30 foizni tashkil etadi. Daromad solig'i etakchi o'rindaligi qator omillarga bog'liq: Birinchidan, bu – shaxsiy soliq, ya'ni to'lovchi haqiqatda olgan daromad ob'ekti bo'lgan soliqdir, bu taxmin etilayotgan, muayyan iqtisodiy sharoitlarda olinishi mumkin bo'lgan o'rtachaga keltirilgan soliq emas. (o'rtachaga keltirilgan daromad asosida aniq - yerga, mulkka va h.k.ga solinadigan soliq belgilanadi); Ikkinchidan, daromad solig'i soliqqa tortilish asosiy tamoyillarini yalpi umumiylik va teng miqdordalikni maksimal darajada amalga oshirish imkonini beradi.

Daromad solig'ini undirishda asosiy kamchilik uni to'lashdan bosh tortish uchun keng imkoniyatning mavjudligidir. Frantsiyada, masalan, soliq to'lashdan daromadning uchdan bir qismigachasi yashiriladi, Shvetsiyada esa 25 foizgacha daromad uchun deklaratsiya to'ldirilmaydi. Shuning uchun, asosiy bo'lgani

holda daromad solig'i rivojlangan mamlakatlarda aholidan olinadigan yagona soliq emas. U aniq soliqlar – yer, uy, ovchilik, pul sarmoya va h.k.lar bilan qo'shilgan. Bu qaysidir darajada daromadning yashirilishi tufayli byudjet yo'qotishlarini bartaraf etish va mulkdan samarasiz foydalanishning oldini olish imkonini beradi.

Meros va sovg'a tarzida o'tadigan mulk solig'i shaxs haqiqiy daromadini hisobga olish vositasi sifatida oxirgi o'rinda turadigan soliqdir. Har bir jismoniy shaxsdan undiriladigan daromad solig'i bazasini hisob-kitob qilishda soliqqa tortilmaydigan eng kam miqdor tushunchasiga duch kelinadi. Soliq solinmaydigan eng kam miqdor kategoriyasiga o'z mohiyati va ahamiyatiga ko'ra standart chegirma deb ataluvchi chegirma – AQSh qonunchiligida nazarda tutilgan imtiyozga yaqindir. Standart chegirma soliq solinmaydigan eng kam miqdor bilan baravar ravishda qo'llanib kelinadi. U soliq solinmaydigan eng kam miqdor singari qat'iy qayd etilgan summada, masalan, 3 ming dollar bilan (yolg'iz soliq to'lovchilar uchun), 5 ming dollar bilan (er-xotinlar uchun) va 2 ming dollar bilan (bir uy xo'jaligidagi har bir shaxs uchun) ifodalanadi. Masalan, to'rt kishidan iborat bir oila – 8 ming dollar standart chegirmaga ega²⁴.

AQShdagi imtiyozning muhim farqi shundan iboratki, soliq to'lovchi standart chegirma o'rniga o'z chiqimlarini moddalar bo'yicha hisoblash usulini qo'llash mumkin. Bu xarajatlarni yalpi daromaddan chiqarib tashlashga ruxsat etiladi (tibbiy xizmat va dori-darmon sotib olish xarajatlari; tish doktori xizmatlariga xaq to'lash; ipoteka krediti bo'yicha to'lanadigan foizlar va shu kabilar). Bizda bu xildagi xarajatlar soliqqa tortiladigan daromaddan chiqarib tashlanmagan. Chunki hozircha, bizning nazarimizda, mamlakatimiz iqtisodiyoti bunday imtiyozli xarajatlarga tayyor emas. Bu aholining daromadlarini soliqqa tortishni yanada takomillashtirish yo'lida yangi bosqich bo'lishi mumkin edi. Tahlillar shuni ko'rsatadiki, AQShda aholidan olinadigan daromad solig'ining asosiy farqi kamayuvchan (regressiv) usulda soliqqa tortiladi. Bizda esa daromadning oshishi bilan soliq stavkasi ko'payib boruvchi, ya'ni progressiv

²⁴ James E.Smith. West Federal taxation: Taxation of business entities. 2005 e. p. 129.

usulda. O'rganilayotgan mamlakatlar ichida Amerikada jismoniy shaxslar daromad solig'i byudjet daromadlari tarkibida anchagina katta salmoqqa egadir. Daromad solig'i bo'yicha asosiy qonuniy hujjat bo'lib 1970 yildagi qonun hisoblanadi. Bunda har yili yangi byudjetlarga o'zgartirishlar kiritilishi mumkin har bir davlatda soliq tizimining o'ziga xosligi jismoniy shaxslardan ham daromad solig'ini undirish mexanizmining o'ziga xosligini belgilaydi.

Amerika federal hukumatida moliya yili 30 sentyabrda tugaydi. Soliqqa tortiladigan daromad deganda odatda ish xaqi, asosiy ish xaqidan tashqari barcha daromadlar, tadbirkorlik faoliyatidan olinadigan daromadlar, pensiyalar, dividendlar, foizlar, royaltlar va daromadlarning boshqa turlari kiradi. Biroq, soliq to'lovining aniq miqdorini aniqlashda barcha daromadlardan barcha xarajatlarni tegishli tartibda chegirib tashlashdan qolgan daromad qabul qilinadi. Ulardan eng muhimi soliqqa tortilmaydan minimumdir. Undan yakka tartibdagi pensiya ta'minotiga yo'naltiriladigan bir oila uchun 50 ming dollardan oshmaydigan summalar, 10 ming dollar miqdorida yakka tartibda deklaratsiya to'ldiriladigan er-xotinlar uchun va 35 ming dollar miqdorida alohida soliq to'lovchilar uchun chegirib tashlanadi. Agar jismoniy shaxs tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullansa, unda sog'lig'ini sug'urta qilishga ketgan mablag'ning 25 foizi miqdoridagi summa chegiriladi. Har bir soliq to'lovchining daromadi 2050 dollar miqdoridagi soliq solinmaydigan minimumga kamaytiriladi. Qaramoqda bo'lgan har bir boqimanda uchun ham shu summa soliqqa tortilmaydi.

Daromad solig'ining hisob-kitobi soliqqa tortilmaydigan minimumni chegirib tashlashdan boshlanadi. Tibbiy xizmatga aloqador transport xarajatlari ham hisobga olinadi. Bu xarajatlar hisob-kitobi xaqiqiy miqdorlaridan kelib chiqib yoki har bir mil uchun 6 tsentlik limitdan kelib chiqadi. Tibbiy xizmatdan foydalanish tufayli uydan tashqarida bo'lgan har bir kecha uchun 50 dollar miqdorida chegirma beriladi. Soliqqa tortiladigan daromaddan to'langan shtatlar va mahalliy soliqlar summolari, ko'chmas mulk soliqlari chegirib tashlanadi. Agar uy sotib olganda kreditdan foydalanish foizlari 1 mln. dollardan (alohida

deklaratsiya to'ldiriladigan er-xotinlar uchun - 500 ming dollar) oshmagan hollarda bu xarajatlarga ham soliq bazasi kamaytiriladi. Investitsion kreditlaridan foydalanganlik uchun foizlarning 1 ming dollar miqdori (alohida deklaratsiya to'ldirilganda esa - 500 dollar) chegiriladi. Shaxsiy ahamiyatdagi kreditlar foizlarning esa 10 foiz miqdorida chegiriladi. Xayriya jamg'armalariga ajratmalar qilinganda korrekcirovka qilingan daromadning 50 foizi miqdori soliqqa tortilmaydi. Tabiiy ofat va o'g'irlik tufayli zararlar ham soliqqa tortilmaydi.

Kasbiy faoliyat, malaka oshirish bilan bog'liq transport va yo'l xarajatlari ham soliqqa tortilmaydi. Yaponiyada esa o'rta daromadli soliq to'lovchining 30 foizgacha miqdordagi daromadi soliqdan ozod etilishi mumkin²⁵.

Yuqoridagilardan ko'rinib turibdiki, soliq stavkalarining miqdori daromad solig'ining byudjet daromadlaridagi salmog'iga to'g'ridan-to'g'ri bog'liq emas. Ya'ni soliq stavkasi qancha katta bo'lsa, soliq tushumlar ham shuncha katta bo'ladi, degan xulosa chiqmaydi. Bu degani har bir davlat jismoniy shaxslar daromadini soliqqa tortishda o'z ustivor yo'nalishi va byudjet manfaatlaridan kelib chiqadi. Lekin, har ikki holatda ham bir narsa shartli ravishda mavjud bo'lishi kerak, ya'ni soliq stavkalari progressiv bo'lish kerak.

Buyuk Britaniya soliq tizimi asosan o'tgan yuz yillikda shakllangan bo'lib, o'sha davrdagi soliq tizimining o'ziga xos xususiyatlari hozir ham saqlanib qolgan. Buyuk Britaniyada 1973 yilda o'tkazilgan soliq islohoti jismoniy shaxslar daromadini soliqqa tortish tizimiga anchagina o'zgartirish kiritdi va uni umumiy bozorga a'zo davlatlar soliq tizimlariga bir muncha yaqinlashtiradi. Hozirgi vaqtda jismoniy shaxslar daromadini soliqqa tortish tizimiga barcha rivojlangan davlatlarga xos bo'lgan muammolar tufayli yuzaga kelayotgan o'zgarishlar ro'y bermoqda. Bundan tashqari Buyuk Britaniya soliq tizimida yuz berayotgan o'zgarishlar asosan, Leyboristlar hukumati olib borayotgan siyosatga mos kelmoqda. Ohirgi o'n yillikda anchagina soliq tadbirlari o'tkazildi, jumladan aholi daromad solig'i stavkalarining bosqichma-bosqich 33 foizdan 22

²⁵ Брызгалин А.В. Налоги и налоговое право. –М.: «Аналитика -Пресс». 1998. стр. 140

foizga tushirildi, aholining turli qatlamlariga soliq imtiyozlari berish tamoyillari o'zgardi, ba'zi soliq turlari bekor qilindi, bir qator soliqlar joriy etildi. Umuman olganda esa soliq qonunchiligining isloh qilinishi daromad solig'ining murakkab tarkibiga oid muammoni echishga, uning tamoyillarini takomillashtirishga, aholini to'g'ri soliqlar bilan soliqqa tortishdagi soliq bazasini kengaytirishga qaratilgan edi.

Jismoniy shaxslarning quyidagi daromadlari soliqqa tortilmaydi: natural ko'rinishda beriladigan nafaqalar, agar ular faqat shu nafaqani oluvchilar tomonidan ishlatilsa va ularni pul ko'rinishiga aylantirish mumkin bo'lmasa, milliy jamgarma sertifikatlari bo'yicha foizlar, nogironlar nafaqalari, talabalarga beriladigan stipendiyalar, ishsizlik, kasallik va onalik nafaqalari.

Britaniya soliq tizimi esa ikkita xususiyatga egadir. Birinchidan, soliq tizimi qanday ishlayotgannini kamdan-kam odam tushunadi. Ikkinchidan, uning o'ziga ketadigan xizmatlar juda qimmatdir. Amerikaliklar qoidasiga ko'ra soliq idorasi bilan yilida bir marta uchrashadilar. Angliyalik soliq to'lovchi esa to'rt marta uchrashadi. Bu Angliya soliq tizimining o'ziga xosligini ko'rsatadi. Inglizlar soliq deklaratsiyalarni topshiradilar va ularga soliq idorasi soliq to'langanligi to'g'risidagi cheklarni yuboradi.

Fuqarolardan undiriladigan mol-mulk solig'i Germaniyada mol-mulkdan olinadi va butunlay yerlar byudjetlariga tushadigan soliqdir. Soliq 1990 yilgi mulkiy soliq to'g'risidagi qonun asosida, 1991 yilni baholash to'g'risidagi qonunda mol-mulkni hisobga olish va baholashning asosiy qoidalari, Federal Konstitutsiyaviy sudning 1995 yildagi qaroriga muvofiq undiriladi. Ushbu soliqqa doir amaldagi qonunchilik har doim ham Konstitutsiyaga to'g'ri kelavermaydi. Shuning uchun bu soliqni undirish bo'yicha albatta bir qator o'zgartirishlar joriy etiladi.

Yangi o'lkalarda yashash joyiga ega bo'lgan jismoniy shaxslar, shuningdek ularda joylashgan korporatsiyalar, shirkatlar uchun alohida qaror qabul qilingan. Ular 1991 yildan 1998 yilgacha bo'lgan davrda mulkiy soliqni to'lashdan ozod qilingan. Mulkiy soliq bo'yicha soliq solinmaydigan eng kam miqdorlar va ko'p

sonli imtiyozlar mavjud. Mol-mulkning boshqa turlarini belgilashda bir qator imtiyozlar mavjud. Masalan: umumiy summasi 110 000 evrodan kam bo'lgan foizli va foizsiz kapital qarzlar, jamgarma omonatlari, bank aktivlari, mamlakatdagi va xorijiy to'lov vositalari, aktsiyalar va ulushlar hisob kitob uchun qabul qilinmaydi.

Shuningdek, sug'urta qilingan shaxslarning bevalari va etimlariga to'langan summalar, pensiyalar va boshqa renta e'tirozlari, ijtimoiy sug'urta hisobidan to'lovlar, aholining bandligi jamgarmasidan nafaqalar va shu kabilar hisobga olinmaydi. Shaxsiy soliqqa tortilmaydigan eng kam miqdorlar: mulkiy soliqning alohida hisoblanmasligiga ega har bir shaxs yoki umumiy hisoblanmasida qatnashuvchilar (er, xotin va bolalar) 120 000 evroga teng soliqqa tortilmaydigan eng kam miqdorga ega bo'ladi.

Agar soliq to'lovchi 60 yoshga to'lgan bo'lsa yoki u taxminan 3 yilga nogironlar to'g'risidagi qonunga binoan 100 foizlik, nogironlik olgan bo'lsa, unga 50000 evroga teng soliqqa tortilmaydigan qo'shimcha eng kam miqdor taqdim etiladi. Agar soliq umumiy tarzda hisoblanadigan er-xotinlardan birining sharoiti yosh yoki nogironlikga tegishli shartlarga muvofiq kelsa, unda ularga 50000 evroga teng soliqqa tortilmaydigan eng kam miqdor taqdim etiladi.

Mol-mulk solig'i yuridik, jismoniy shaxslarning netto mol-mulkiga (qarzlar chegirib tashlanib) soliq hisoblanadi. Soliq stavkalari proportsional va odatda yuqori emas. Masalan, GFRda jismoniy shaxslar uchun stavkalar 0,5 foiz qilib belgilangan. Hozirgi mulkiy soliq shaxsiy soliq hisoblanadi va real soliqlardan farqli ravishda unga soliqqa tortishda soliqqa tortilmaydigan eng kam miqdor va soliq bo'yicha imtiyozlar hisobga olinadi. Mol-mulkning baholanishi soliq deklaratsiyasiga binoan amalga oshiriladi. Germaniyada soliq to'lovchi jismoniy shaxslarni hisobga olish e'tiborga loyiqdir. Chunki soliq to'lovchilarni soliq inspektorlari emas, fuqaro istiqomat qiladigan obshina hisobga oladi. Fuqarolarning mulklari va yerlari to'g'risidagi ma'lumotlar obshina tomonidan soliq idorasiga har bir to'lovchi bo'yicha beriladi va soliq idorasi ushbu ma'lumotlarni soliq to'lovchining nazorat kartochkasiga asosan shaxsiy

kartochka sifatida ochilgan hisob raqamiga tegishli yozuvlarni kiritadi. Soliq idorasi soliq hisobini tuzib, soliq to'lovchining shaxsiy hisob varaqasiga hisoblangan soliq to'g'risidagi yozuvni kiritadi.

3.2. Jismoniy shaxslardan undiriladigan soliqlarni hisoblash tartibini takomillashtirish yo'llari.

Soliq tizimini takomillashtirishda asosiy e'tibor soliq to'lovchilarning davlat byudjeti bilan majburiy to'lovlar bo'yicha iqtisodiy munosabatlarning eng qulay uyg'unligini ta'minlashga qaratilishi zarur. Boshqa soliq turlari singari jismoniy shaxslardan undiriladigan soliqlarning mavjud mexanizmini nazariy jihatdan tahlili bu soliq turlarini undirishni yanada takomillashtirilishi lozim degan xulosani chiqarishga imkon beradi. O'zbekiston byudjet daromadlari shakllantirilishida ushbu soliqlarning miqdori va o'rni hozircha unchalik katta emas. Birinchidan, bu soliqlar mukammal xarakterga ega bo'lmagani uchun ularga etarli e'tibor berilmagan. Ikkinchidan, ushbu soliqlarning aksariyat qismi mahalliy byudjetlarning daromadini tashkil etadi.

Jismoniy shaxslar turli mol-mulkini soliqqa tortishni rivojlantirish mahalliy o'zini-o'zi boshqarish organlarining umumiy va moliyaviy mustaqilligini oshirish yo'llaridan biridir. Mol-mulk solig'ining fiskal ahamiyatidan ko'ra, iqtisodiy ahamiyati ko'proqdir. Qayd etish lozimki, jismoniy shaxslar to'laydigan mol-mulk solig'ini undirish mexanizmi boshqa soliq turlarini undirish mexanizmidan bir muncha farq qiladiki, bu farq ularning biroz murakkabligi bilan tavsiflanadi. Biz bu erda murakkablik deganda soliqni hisoblashni emas, balki, bu soliq turlarini undirish mexanizmini nazarda tutyapmiz. Masalan, jismoniy shaxslardan undiriladigan daromad solig'i yoki tadbirkorlik faoliyatidan olinadiga qat'iy soliqni undirish jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk solig'iga nisbatan oson va qulayligi bilan ajralib turadi. Chunki, daromad solig'i shaxs ishlaydigan tashkilot tomonidan ushlab qolinsa, tadbirkor o'z faoliyatini to'xtatmaslik uchun to'lovlarini o'zi ma'suliyat sezgan holda to'lashga harakat qiladi. Bu soliq xizmati organlari ishini engillashtiradi.

Ammo, jismoniy shaxslar to'laydigan mol-mulk solig'i xususida bunday fikrni keltirish unchalik o'rinli emas. Sababi, aholi yuqorida sanab o'tilgan soliqlarga nisbatan mol-mulk solig'ini to'lashdan manfaatdorlik darajasi past, shu sababli ular bu soliqni o'z vaqtida to'lashga harakat qilmaydilar. Bu holatlar shunday hulosaga olib keladiki, jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk va er solig'ini takomillashtirishda ushbu soliqlarni undirish bilan bog'liq jarayonlarga ko'proq e'tibor qaratish lozim.

Jismoniy shaxslarning mol-mulk solig'ini hisoblash va byudjetga to'lash tartibini takomillashtirish masalalari to'g'risida fikr yuritadigan bo'lsak, mol-mulk solig'i mahalliy byudjetni to'ldirishda muhim daromad manbalaridan biri bo'lib hisoblanadi. U pirovard natijada tuman aholisiga ijtimoiy-iqtisodiy ehtiyojlarni qondirish, tuman hududini obodonlashtirish va hokazolar uchun sarf qilinishi tarzida qaytib keladi. Soliqning to'la-to'kis undirilishini ta'minlash soliq inspektorlariga yuklatilgan. Har bir uchastka inspektoriga muayyan hudud biriktirib qo'yilgan bo'lib, uning vazifasiga to'lov xabarnomalarini tarqatish, soliq tushumlarini o'z vaqtida undirishni nazorat qilish kiradi. Muayyan tumanda qancha uy-joylar, kvartiralar, dala hovli, garajlar va boshqa imoratlar, bino va boshqa inshootlar, shuningdek, qancha yer uchastkalari borligi to'g'risida aniq ma'lumotga ega bo'lish, ularning qay darajada to'layotganligini kuzatib borish maqsadida maxsus daftar joriy qilingan.

Jismoniy shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliqni takomillashtirish maqsadida hozirgacha amalga oshirilgan ishlar, faqatgina jismoniy shaxslar mol-mulk solig'i stavkasining foiz miqdorini har yili oshirish bilan cheklanib qoldi. 2002 yildan boshlab esa soliq solinadigan mol-mulk tarkibidan transport vositalari chiqarib tashlandi va transport vositalariga benzin, dizel yoqilg'isi va suyultirilgan gaz ishlatganlik uchun olinadigan soliq sifatida amalga kiritildi. Endi ushbu soliq turini fuqaro transport vositasidan foydalangandagina to'laydi. Bundan avval esa, transport vositasidan foydalanyaptimi yo'qmi, bundan qat'i nazar egaligida transport vositasi bo'lsa, soliq to'lar edi. Bu esa soliq tamoyillaridan kelib chiqqan holda adolatsiz edi.

Hozirgi kunda jismoniy shaxslarning mol-mulk solig'ini muammoli jihatlaridan biri uni to'liq ro'yxatga olish va qiymatini baholashdadir. Mol-mulkni ro'yxatga olish va qiymatini baholash bilan texnik inventarizatsiyalashning hududiy kadastr bo'limlari shug'ullanadi. Texnik inventarizatsiyalashning hududiy kadastr bo'limlari tomonidan aniqlangan umumiy inventarizatsiya qiymati esa jismoniy shaxslar mol-mulk solig'ini hisoblab chiqarish uchun soliqqa tortish bazasi bo'lib xizmat qiladi. Bizning fikrimizcha, TIB tomonidan baholangan mol-mulk qiymati hozirgi bozor iqtisodiyoti sharoitiga to'g'ri kelmaydi. Chunki jahon amaliyotida soliqni hisoblab chiqarishda mol-mulkning bozor bahosi asos qilib olinadi. Mol-mulkni inventarizatsiya qiymati asosida baholashda uning bozor bahosidan kelib chiqmaydi va natijada baholangan qiymat haqiqiy bozor bahosidan kam bo'lib chiqadi. Bu esa o'z navbatida byudjetga tushadigan soliq tushumlariga ta'sir etadi.

Mol-mulk qiymatining aniq baholanmasligi, uning haqiqiy qiymatidan past bo'lishiga olib keladi. Buni asosan uy-joy, dala-hovli uylarni baholashda ko'rish mumkin. Mol-mulk qiymatining aniq baholanmasligi natijasida mahalliy byudjetga jismoniy shaxslar mol-mulk solig'i bo'yicha tushumlarning kamayishiga olib keladi. Bu kabi kamchiliklarni oldini olish uchun esa mol-mulkni o'z vaqtida, to'liq ro'yxatga olish va baholash lozim. Mol-mulkni inventarizatsiya qiymati bo'yicha baholashdagi salbiy jihatlar oldi-sotdi jarayonida yuzaga chiqadi. Mol-mulkning oldi-sotdi bitimlarini amalga oshirish chog'ida soliq to'lamaslik yoki soliq summasini kamaytirish maqsadida oldi-sotdi hujjatlari inventarizatsiya qiymati bo'yicha rasmiylashtiriladi. Ammo haqiqatda amalga oshiriladigan bitim esa bozor bahosida tuziladi.

Mol-mulkning soliqqa tortilmaydigan minimum qiymati tushunchasini soliq amaliyotiga kiritish lozim. Mol-mulkning soliqqa tortilmaydigan minimum qiymatini belgilashda soliq to'lovchi joylashgan hududning rivojlanganlik darajasi, oila a'zolarining soni, soliq to'lovchining ijtimoiy ahvoli, to'lovga qobiliyatlilik darajasi kabi turli xil omillarga e'tibor berish kerak. Shunday qilib,

madaniy va hatto, iqtisodiy nuqtai nazardan saqlab qolinishi kerak bo'lgan minimal qulaylik soliqqa tortilmasligi kerak. Shuningdek, mol-mulk ob'ektining alohida turdagi predmetlarga nisbatan qayta baholashning boshqa usullarini qo'llash va farqli soliq stavkalarini qo'llash zarur.

Jismoniy shaxslar mol-mulk solig'idan beriladigan imtiyozlar tahlili, bu soliqning yana bir muammoli tomoni borligini ko'rsatdi. Bu muammo yangi qurilayotgan katta qiymatli uylarning uyni egasi yoki uydan foydalanuvchi jismoniy shaxsning ya'ni, haqiqiy soliq to'lovchi bo'lishi kerak bo'lgan shaxsning nomiga rasmiylashtirilmasdan, balki imtiyozga ega bo'lgan pensionerlar (bobosi, buvisi, otasi, onasi) nomiga rasmiylashtirish hollarining ko'payishi bilan bog'liqdir. Buning natijasida sun'iy soliq imtiyozlarini yuzaga kelishi hisobiga soliq tushumlari kamayishiga sabab bo'ladi. Yuqoridagi imtiyoz turidan foydalanish holati qonuniy hisoblanadi, chunki O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksiga muvofiq pensionerlar (60 m² maydon uchun)ning, shuningdek I va II guruh nogironlarining mol-mulkiga soliq solinmaydi deb bayon etilgan.

Shunday qilib, jismoniy shaxslarning mol-mulkidan olinadigan soliqni takomillashtirish uchun, mol-mulkni to'liq ro'yxatga olish va baholash ishlari aniqligini ta'minlash kerak. Mol-mulk solig'ini hisoblab chiqarishga mulkning bozor bahosi asos qilib olinishi kerak. Byudjetga mol-mulk solig'i tushumlarini yanada ko'paytirish uchun hamda kam ta'minlangan oilalarni ijtimoiy himoyalash uchun progressiv soliq stavkasini hamda soliqqa tortilmaydigan minimumni amalga kiritish kerak. Aholi orasida soliq to'g'risida tushuntirish ishlarini olib borish lozim. Shuningdek, soliq summasini to'lashda to'g'ridan-to'g'ri yuridik shaxs tomonidan to'lanadigan ish haqidan davlat soliq inspeksiyasi hisob raqamiga o'tkazilishini joriy etish mumkin. Umuman olganda jismoniy shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliqni takomillashtirishda xorijiy davlatlarning amaliyoti va boy tajribalaridan ham keng foydalanish lozim.

Umuman olganda bugungi kunda respublikamiz soliq tizimida jismoniy shaxslar daromad solig'i muhim ahamiyatga ega ekanligidan kelib chiqqan holda aytish mumkinki, ushbu soliq turi bo'yicha islohotlar amalga oshirilishida ehtiyotkorona yondashishni talab etadi. Jismoniy shaxslar daromad solig'i stavkalarini takomillashtirishda bosqichma-bosqich islohotlarni davom ettirgan holda, uning stavkalarini uch pog'onali tizimdan ikki pog'onali tizimga va shu tarzda yuqoridagi yo'nalishlarni hisobga olgan holda yagona stavkani joriy etish o'z samarasini beradi.

Fikrimizcha, jismoniy shaxslarning mehnatga haq to'lash shaklidagi daromadlarini soliqqa tortish mexanizmi kamchiliklardan holi emas. Shunga asosan aytish mumkinki, ushbu soliqqa tortish tizimi ishlab chiqarish korxonalari va tashkilotlarida "o'zi yo'q odam"ni rasmiylashtirishga, ya'ni norasmiy ishlovchilar sonini oshirishga bo'lgan g'ayriqonuniy fikrlarni vujudga kelishiga sababchi bo'lishi mumkin.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, aytish mumkinki, ushbu soliqqa tortish tartibini mavjud kamchiliklardan holi etish va takomillashtirish bugungi kunning asosiy vazifalaridan biridir. Fikrimizcha, mazkur soliqqa tortish tartibini takomillashtirish quyidagi uch yo'nalishda bo'lishi zarur:

Birinchi yo'nalish - ortiqcha sarf qilingan mehnat orqali oshirilgan ish xaqini rag'batlantirish funktsiyasini oshirish.

Ikkinchi yo'nalish - ish xaqidan ushlanadigan daromad solig'i foiz hisobida aniqlanib, uning miqdori faqat bir xil foizda bo'lishi lozim.

Ko'rinib turibdiki, bunday usulda soliqni chetlab o'tishni iloji yo'q, davlat byudjeti zarar ko'rmaydi, aksincha yuqorida misol qilib olingan qo'shtirnoq ichidagi ishbilarmonlar hisobidan davlat byudjeti ko'payishiga shak-shubha yo'q. Bundan tashqari, bunday usulni qo'llanilishi respublikamizdagi 350 minglik buxgalterlar ishini ancha engillashtiradi. Chunki bir kishi ish haqidan ushlanadigan daromad solig'ining hisob-kitob ishlarini, yana, uning ustiga, soliqni har oyda qo'shib borishi orqali aniqlanishini nazarda tutilsa, buxgalter

tomonidan bajariladigan ish hajmi va o'zi bilib-bilmagan holda xato qilishini ko'z oldimizga keltiraylik.

Shu bilan birga auditorlik yoki soliq inspeksiyasi tomonidan o'tkaziladigan tekshiruvlarda vaqt etmasligi uchun bu sohani sifatli tekshirilishiga hech qanday shubha yo'q. Agar soliq yagona foizda ushlansa nafaqat bir oylik, hatto yillik oylik soliq hajmini tekshirish uchun bir necha daqiqagina sarf bo'ladi xolos.

Uchinchi yo'nalish - davlat byudjeti tomonidan moliyalashtirilgan muassasalar ishchi-xizmatchilarini nominal ish xaqidan real ish xaqiga o'tkazish. Shundan kelib chiqib aytish mumkinki, hech bo'lmasa, byudjet muassasalarida real ish xaqi to'lash usuliga o'tish vaqti keldi.

Jismoniy shaxslarga taqdim etiladigan imtiyozlar mexanizmini takomillashtirish zaruriyatini quyidagilarda ko'rish mumkin:

Birinchidan, jismoniy shaxslar imtiyozlari asosan aholini va fuqarolarni ijtimoiy muhofazasiga qaratilgan. Jismoniy shaxslarning tadbirkorlik faoliyatini oladigan bo'lsak, ularga berilgan imtiyozlar hozirgi amaldagi qonunchilik bo'yicha bekor qilingan. Bizga ma'lumki yuridik shaxslarni faoliyatini rag'batlantiruvchi bir qator imtiyozlar mavjud bo'lib, bular o'z navbatida ularning ushbu faoliyatlarini kengaytirishiga, ishlab-chiqarish va moddiy texnika bazasini kengaytirishiga xizmat qiladi. Tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanuvchi jismoniy shaxslarning qat'iy soliq joriy etilgunga qadar bir qator chegirmalar berilar edi. O'ylaymizki, tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanuvchi jismoniy shaxslarning faoliyatlarini kengaytirishiga, ishlab-chiqarish va moddiy texnika bazasini kengaytirishiga xizmat qiladigan imtiyozlarni joriy etish lozim.

Ikkinchidan, Soliq kodeksida ba'zi bir imtiyozlar bo'yicha sharhlar keltirilmagan, bu esa ushbu imtiyozlarni qo'llashda tushunmovchiliklarni keltirib chiqaradi. Jumladan, jismoniy shaxslarning mol-mulki bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 275-moddasida bir qator imtiyozlar belgilangan. Lekin, shu moddaning 5 va 6-bandlarida pensionerlar (belgilangan

soliq solinmaydigan maydon o'lchami doirasida), shuningdek I va II guruh nogironlarining mulkiga soliq solinmasligi belgilangan. Lekin amaliyotda shunday muammo borki, ba'zi hollarda III-guruh nogironlari ham pensioner sifatida imtiyozga ega ekanliklarini aytib, imtiyozga da'vo qiladilar. Bir tomondan qaralsa ularni pensioner ekanliklarini tasdiqlovchi guvohnoma imtiyoz huquqiga ega bo'lishni asoslaydi, ikkinchi tomondan I va II-guruh nogironlari deb alohida belgilangani ularni imtiyoz olish huquqlarini rad qiladi;

Uchinchidan, ma'lumki, mol-mulk solig'i bo'yicha imtiyozlar mol-mulk egasining tanloviga ko'ra, imtiyoz olish huquqini beruvchi zaruriy hujjatlar taqdim etilganda, mol-mulkning faqat bir ob'ektiga taalluqli bo'ladi. Lekin yer solig'idan imtiyoz berishda bunday yondashuv belgilanmagan. Buning oqibatida bir necha joyda yerga ega, lekin ushbu soliqdan imtiyozi bor fuqarolar hamma ob'ektlar bo'yicha imtiyozga ega bo'lib, soliqning ahamiyatini pasaytirmoqda.

To'rtinchidan, O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksida imtiyozlar qo'llash bo'yicha har bir imtiyoz turi va qo'llanilishi bo'yicha sharh yozish, yoki xududiy soliq idoralariga imtiyozlarni qo'llash to'g'risida yo'riqnoma yoki amaliy qo'llanma tuzib etkazish lozim.

Beshinchidan, soliqlar bo'yicha jismoniy shaxslarga imtiyozlar taqdim etishda mahalliy xokimiyat organlari vakolatlarini kengaytirish;

Oltinchidan, ijtimoiy jihatdan kam ta'minlangan oilalarga hisoblangan mahalliy soliq va yig'implardan imtiyozlar berish bo'yicha Soliq kodeksiga o'zgartirishlar kiritish lozim.

Ettinchidan, noturar joylarni, bog', tokzorlar va hokozolarni ijaraga olib daromad olayotgan fuqarolarni aniqlash va soliqqa tortishda mahsulot etishtirish bilan bog'liq xarajatlarga chegirma berish lozim;

Sakkizinchidan, tadbirkorlik bilan shug'ullanuvchi nogironlar va ularga tenglashtirilgan fuqorolarga nisbatan belgilangan qat'iy soliq miqdorlari bo'yicha imtiyozlar berish lozim deb hisoblaymiz.

XULOSA

Davlat byudjeti daromadlarining uzluksizligini ta'minlash bilan birgalikda, tadbirkorlik faoliyatini samarali amalga oshirish mexanizmining asosiy omillaridan biri bo'lgan soliq tizimini, jumladan, jismoniy shaxslardan olinadigan soliqlar tizimini davr talablariga mos ravishda takomillashtirib borish muhim ahamiyat kasb etadi. Mazkur mavzuni tadqiq etish natijasida quyidagi xulosalarga kelindi:

1. Jismoniy shaxslardan olinadigan soliqlar byudjet daromadlarida kam ulush ega bo'lsada, ammo, soliq tizimida alohida ahamiyatga egadir;
2. Er va mulk munosabatlari soliqqa tortiladigan ob'ekt sifatida yuzaga chiqadi;
3. Davlat mulki hisoblangan yerdan foydalanish pulli hisoblanadi;
4. O'z ihtiyorida soliq solinadigan mol-mulkka ega bo'lgan jismoniy shaxslar mol-mulk solig'i to'lovchilardir;
5. O'z mulkida, egaligida yoki foydalanishida yer uchastkalariga ega bo'lgan jismoniy shaxslar yer solig'i to'lovchilardir;
6. Jismoniy shaxslar mol-mulki va yer uchastkalari soliq solish ob'ekti hisoblanadi;
7. Mol-mulk solig'i stavkalari mulkning qayta baholangan va baholanmagan qiymatiga alohida belgilangan, yer solig'i stavkalari esa zonalar bo'yicha tabaqalashtirilgan;
8. Ayrim soliq to'lovchilarni ijtimoiy himoyalash va rag'batlantirish maqsadida ushbu soliq turlaridan imtiyozlarning mavjudligi;
9. Mol-mulk va yer soliqlarini to'lash jismoniy shaxslar uchun qulay muddatlarda undiriladi.

Biz jismoniy shaxslar mol-mulk solig'ini takomillashtirish maqsadida quyidagi takliflarni berishni lozim deb topdik:

1. Mol-mulkdan soliq olish mexanizmining samarali ishlashi bevosita mazkur soliqning amal qilishini ta'minlab turuvchi soliq qonunchiligi va tegishli me'yoriy hujjatlarning barqarorligiga bevosita bog'liqdir. Tadqiqot natijasiga

ko'ra, bu soliq ilk bor qo'llanila boshlagandan to hozirgacha bir necha o'nlab turli o'zgartirishlar va qo'shimchalar kiritilgan. Bu, ma'lum bir nuqtai nazardan tabiiy deb qaralsa-da, bizningcha, bu narsaga chek qo'yish vaqti keldi. Bu fikrning to'g'ri ekanligini jahon ilg'or tajribasi ham yaqqol ko'rsatib turibdi.

2. Jismoniy shaxslarning soliqqa tortiladigan mulk ob'ektlarini to'liq va o'z vaqtida ro'yxatga olish hamda baholash ishlari aniqligini ta'minlash. Natijada soliq to'lovchilar soni va mahalliy byudjetga soliq tushumlari oshadi. Bunda mulk qiymatini bozor iqtisodiyoti talablaridan kelib chiqqan holda, bozor bahosida baholashni amalga oshirish lozim;

3. Ijtimoiy himoyani yanada kuchaytirish maqsadida ko'pgina xorijiy mamlakatlarda qo'llanilayotgan mol-mulk solig'iga tortilmaydigan mol-mulkning minimal qiymatini ham amalga kiritish lozim. Bunda kam ta'minlangan va o'rtahol aholi qatlamlari uchun soliq yukini kamaytirish, ko'pchilik hollarda esa istisno etish uchun ham mol-mulkning soliqqa tortilmaydigan minimal qiymatini joriy etish maqsadga muvofiqdir. Mol-mulkning muayyan miqdori va turi odamlarning zaruriy hayotiy ehtiyoji hisoblanadi. Bunda mol-mulkning zaruriy minimumi soliqqa tortishdan ozod qilinishi kerak va zaruriy ehtiyojdan ortib qolgan qismi soliqqa tortilishi kerak. Mol-mulkning soliqqa tortilmaydigan minimum qiymatini belgilashda soliq to'lovchi joylashgan hududning rivojlanganlik darajasi, oila a'zolarining soni, soliq to'lovchining ijtimoiy ahvoli, to'lovga qobiliyatlilik darajasi kabi turli xil omillarga e'tibor berish kerak. Shunday qilib, madaniy va hatto, iqtisodiy nuqtai nazardan saqlab qolinishi kerak bo'lgan minimal qulaylik soliqqa tortilmasligi kerak.

4. Mamlakatimizdagi mol-mulk va yer soliqlarini birlashtirib, jismoniy shaxslar egaligidagi barcha mulkka, jumladan, yer uchastkalari ham shu mulk ob'ektiga kiritilgan holda mol-mulk solig'iga tortish. Buning uchun mamlakatimizda mulk hamda yerning bozor bahosi shakllangan bo'lishi kerak. Shuningdek, soliq stavklarini ham qaytadan ko'rib chiqish kerak bo'ladi. Shunday qilib, mol-mulk va yer soliqlarini birlashtirgan holda, ushbu soliq

turlarini ixchamlashtirishga, soliqlarni undirish bilan bog'liq xarajatlarni kamaytirishga hamda soliqlarning samarali ishlashiga erishish mumkin.

Jismoniy shaxslarning daromadlarini soliqqa tortish mexanizmini takomillashtirish maqsadida quyidagilarni amalga oshirish lozim:

1. Jismoniy shaxslarni daromadlarini soliqqa tortish tizimini davr talabidan kelib chiqib takomillashtirish, undan aholining turmush darajasini tartibga solish, tadbirkorlik faoliyatini rag'batlantirish va byudjetga muntazam ravishda daromadlar kelib tushushini ta'minlash uchun foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi.

2. Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'ining ijtimoiy-iqtisodiy mohiyati va uni takomillashtirish yo'nalishlari soliq solish tamoyillari hamda ularni ro'yobga chiqarishdagi izchillikni taqozo etadi. Ushbu soliqning xususiyatlari soliq munosabatlarini ham har tomonlama hayotga to'g'ri tatbiq etish va xolisona xizmat qilishni taqozo etadi. Soliqqa tortishda, klassik va zamonaviy tamoyillardan foydalanish qo'l keladi. Bular soliqqa tortishning aniqligi va ravshanligi; arzonligi; moslashuvchanligi va fiskal samaradorligi; ijtimoiy jihatdan asoslanganligi va adolatliligi kabi tamoyillardir.

3. Jismoniy shaxslar daromadiga soliq solish jarayonini tahlil etish shuni ko'rsatadiki, soliq solish ob'ektlari va sub'ektlari, soliq imtiyozlari, soliq stavkalari tizimi va ularning rivojlanishida taraqqiy etgan mamlakatlarga qaraganda katta tafovutlar ko'zga tashlanmaydi. Shunga qaramasdan, respublikamiz iqtisodiyotidagi tez o'zgarishlar ayrim soha tarmoqlar qatori jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'ini ham takomillashtirishni talab etadi.

4. Tajriba va tahlillar shundan dalolat bermoqdaki, jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'ining salmog'i boshqa soliqlarga nisbatan davlat byudjeti daromadlarida ancha yuqori, ayniqsa mahalliy byudjetlarda. Soliq to'lovchilar, mazkur soliqlarning og'irligi shakllanayotgan darajadagi jarayonlari yuqori deb ta'kidlab kelmoqdalar. Fikrimizcha, bunday vaziyatning yumshatishning asosiy yo'llaridan biri mumkin qadar respublikamizdagi

umumiy soliq to'lovchilarning soni va ularda shakllanayotgan daromadini oshirishga qaratilgan tadbirlarni ishlab chiqarish va amalga oshirishdir. Sir emaski, respublikamiz aholisining aksariyat qismi qishlok joylarda istiqomat qilmoqda. Natijada, soliq to'lovchilar soni ko'p bo'lishiga qaramasdan, davlat byudjeti daromadida mazkur soliqdan shakllanayotgan summa sezilarsiz bo'lmoqda. Buni ijobiy hal etishning asosiy yo'llaridan biri, mumkin qadar qishloq joylarida xalq iste'moli mollari ishlab chiqarish, xizmat ko'rsatish korxonalari, kichik korxonalar va shunga o'xshash xo'jalik subektlarini tashkil etishni iqtisodiy tomondan maksimal rag'batlantirish lozim.

5. Jahon amaliyotida jismoniy shaxslar daromadlarini soliqqa tortishning progressiv stavkalari bilan birgalikda yagona, oddiy foizli stavkada soliqqa tortish amaliyoti ham qo'llanilib kelinmoqda va bir qadar o'z samarasini bermoqda. Bizningcha, respublikamiz soliqqa tortish amaliyotida jismoniy shaxslarning ish haqi shaklidagi daromadlarini soliqqa tortishda 3 bosyaichli stavkalardan 2 bosqichli stavklarga o'tish va asta-sekin yagona stavka joriy etish lozim. Hozirgi paytda yagona stavka qo'llanilayotgan mamlakatlar amaliyotini bu mexanizm o'zining samarasini ko'rsatmoqda.

6. Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i tartibini takomillashtirish masalalaridan biri bo'lgan soliqqa tortilmaydigan eng kam miqdorni aniqlash va soliq ortib borishining ijtimoiy-iqtisodiy asoslariga nisbatan yuqorida bildirilgan fikrlarning inobatga olinishi, aholidan olinadigan daromad solig'i tartibini davr talabiga moslab takomillashtirishga o'zining munosib hissasini qo'shadi.

7. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1994 yil 12 maydagi 250-son qaror bilan tasdiqlangan ishlab chiqarishlar, muassasalar, ishlar, kasblar, lavozimlar va ko'rsatkichlarning 1,2 va 3-ro'yxatlariga kiruvchi mehnat sharoitlari o'ta zararli, o'ta og'ir, zararli va og'ir bo'lgan ishlab chiqarishlarda ishlovchi xodimlarning (ayollarning) daromadlariga soliq solishning amaldagi imtiyozli tartibi belgilangan. Taklifimiz ularning mehnatga haq to'lash shaklidagi daromadlariga belgilangan soliq stavkalarini qaytadan ko'rib chiqish

lozim. Buning zarurati shu bilan ifodalanadiki, 2013 yilda ushbu soliq stakasining eng yuqori miqdori 22 foiz qilib belgilanishi natijasida 20 foizlik imtiyozli stavka o'zining kuchini yo'qotdi. Shundan kelib chiqib, og'ir va zararli, o'ta og'ir va o'ta zararli sharoitlarda ishlovchilar uchun soliq imtiyozli stavkani daromad solig'ining eng quyi stavkasi (6 foiz – ayollar uchun) va o'rta stavkasi (2014 yil uchun 12 foiz – xodimlar uchun) joriy etilishi maqsadga muvofiq.

8. Jismoniy shaxslarning mehnatga haq to'lash shaklidagi daromadlaridan ayrim ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan xarajatlar (masalan, dori-darmon, davolanish xarajatlari)ni chegirish va ularning yillik daromadlarini umumiy deklaratsiyalash tizimiga tezroq o'tkazish lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

I. O'zbekiston Respublikasi Qonunlari. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmon va Qarorlari, Vazirlar Mahkamasining Qarorlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov asarlari.

Normativ-huquqiy hujjatlar:

- 1.1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. –T.: “O'zbekiston”, 2012
- 1.2. O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi. –T.: “Adolat”, 2012
- 1.3. O'zbekiston Respublikasining “Davlat soliq xizmati to'g'risida”gi Qonuni.
//Xalq so'zi, 1997 yil 29 avgust
- 1.4. O'zbekiston Respublikasining “Byudjet tizimi to'g'risida”gi Qonuni.
//Soliqlar va bojxona xabarlar, 2000 yil 14 dekabr
- 1.5. O'zbekiston Respublikasining “Soliq maslahati to'g'risida”gi Qonuni.
//Xalq so'zi, 2006 yil 21 sentyab
- 1.6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2012 yil 25 dekabrda
“O'zbekiston Respublikasining 2013 yilgi asosiy makroiqtisodiy
ko'rsatkichlari prognozi va Davlat byudjeti parametrlari to'g'risida”gi
1887-sonli Qarori
- 1.7. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2011 yil 30 dekabrda
“O'zbekiston Respublikasining 2012 yilgi asosiy makroiqtisodiy
ko'rsatkichlari prognozi va Davlat byudjeti parametrlari to'g'risida”gi
1675-sonli Qarori
- 1.8. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2010 yil 24 dekabrda
“O'zbekiston Respublikasining 2011 yilgi asosiy makroiqtisodiy
ko'rsatkichlari prognozi va Davlat byudjeti parametrlari to'g'risida”gi
1449-sonli Qarori
- 1.9. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2009 yil 22 dekabrda
“O'zbekiston Respublikasining 2010 yilgi asosiy makroiqtisodiy

ko'rsatkichlari prognozi va Davlat byudjeti parametrlari to'g'risida"gi
1245-sonli Qarori

**O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning
asarlari va ma'ruzalari:**

- 1.10.Karimov I.A. Bosh maqsadimiz – keng ko'lamli islohotlar va modernizatsiya yo'lini qat'iyat bilan davom ettirish. –T.: "O'zbekiston", 2013. –32 b.
- 1.11.Karimov I.A. 2012 yil Vatanimiz taraqqiyotini yangi bosqichga ko'taradigan yil bo'ladi. –T.: "O'zbekiston", 2012. –36 b.
- 1.12.Karimov I.A. Demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini shakllantirish - mamlakatimiz taraqqiyotining asosiy mezonidir. –T.: "O'zbekiston", 2011. –360 b.
- 1.13.Karimov I.A. Bank tizimi, pul muomalasi, kredit, investitsiya va moliyaviy barqarorlik to'g'risida. –T.: "O'zbekiston", 2011. –528 b.

II. Asosiy va qo'shimcha adabiyotlar.

Darslik va o'quv adabiyotlar:

- 2.1. Vahobov A., Jo'raev A. Soliqlar va soliqqa tortish. Darslik. –T.: "Sharq", 2009. –448 b.
- 2.2. Shamsutdinov F., Shamsutdinova Sh. Chet mamlakatlar soliq tizimi. Darslik. –T.: "Fan va texnologiya", 2011. –508 b.
- 2.3. Malikov T., Vahobov A. Moliya. Darslik. –T.: "NOSHIR", 2010. –712 b.
- 2.4. Jo'raev A., Toshmatov Sh., Abdurahmonov O. Soliqlar va soliqqa tortish. O'quv qo'llanma. –T.: "NORMA", 2009. –184 b.
- 2.5. Yo'ldoshev A. Soliq va soliqqa tortish. O'quv qo'llanma. –T.: "NORMA", 2007. –128 b.
- 2.6. Toshmurodova B., Elmirzayev S. Korporativ soliq menejmenti. O'quv qo'llanma. –T.: "MUMTOZ SO'Z", 2010. –104 b.

- 2.7. Zavalishina I. Soliqlar: nazariya va amaliyot. –T.: “Iqtisodiyot va huquq dunyosi”, 2005. –544 b.
- 2.8. Gadoev E., Kuzieva N. O'zbekistonning jahon bozorlarida raqobatbardoshligini oshirish va ishlab chiqarishni modernizatsiyalashga soliq imtiyozlari va preferentsiyalarning roli va ahamiyati. O'quv-uslubiy qo'llanma –T.: “EL PRESS”, 2011. –204 b.
- 2.9. Jo'raev A., Safarov G'. Soliq nazariyasi. O'quv qo'llanma. –T.: “Iqtisod-moliya”, 2005. –211 b.
- 2.10. Jo'raev A. Davlat byudjeti daromadlarini shakllantirishning samarali yo'llari. Monografiya. –T.: “Fan nashriyoti”, 2004. –242 b.
- 2.11. Тарасова В., Владыка М., Сапрыкина Т., Семькина Л. Налоги и налогообложение. Учебник. –М.: “Кнорус”, 2012. –488 с.
- 2.12. Дорофеева Н., Брилон А., Брилон Н. Налоговое администрирование. Учебник. –М.: “Дашков и К”, 2010. –296 с.
- 2.13. Черник Д.Г. Налоги и налогообложения: Учебник. –М.: “ЮНИТИ”, 2010. –310 с.
- 2.14. Майбуров И. и другие. Налоги и налогообложение. Учебник. –М.: “ЮНИТИ-ДАНА”, 2008. –511 с.
- 2.15. Александров И. Налоги и налогообложение. Учебник. –М.: “Дашков и К”, 2006. –318 с.
- 2.16. Перов А., Толкушкин А. Налоги и налогообложение. Учебное пособие. –М.: “Юрайт”, 2012. –899 с.
- 2.17. Алиев Б., Абдулгалимов А., Алиев М. Теория и история налогообложения. Учебное пособие. –М.: “Вузовский учебник”, 2011. –240 с.
- 2.18. Жидкова Е. Налоги и налогообложение. Учебное пособие. –М.: “Эксмо”, 2010. –240 с.
- 2.19. Качур О. Налоги и налогообложение. Учебное пособие. –М.: “Кнорус”, 2009. –360 с.

- 2.20. Евстигнеев Е. Налоги и налогообложение. Учебное пособие. –Спб.: “ПИТЕР”, 2009. –320 с.
- 2.21. Скрипниченко В. Налоги и налогообложение. Учебное пособие. –М.: “БИНФА”, 2008. –496 с.
- 2.22. James E. Smith. West Federal taxation: Taxation of business entities. 2005 e. p. 129.
- 2.23. Александров И. Налоговые системы России и зарубежных стран. -М.: “Бератов-Пресс”. 2002. –380 с.
- 2.24. Soliqqa oid qonun hujjatlaridagi yangiliklar. –T.: “NORMA”, 2012. –480 b.
- 2.25. O'zbekiston Respublikasining iqtisodiy-ijtimoiy taraqqiyotining mustaqillik yillaridagi (1990-2010 yillari) asosiy tendentsiya va ko'rsatkichlari hamda 2011-2015 yillarga mo'ljallangan prognozlari: statistik to'plam. –T.: “O'zbekiston”, 2011. –140 b.

III. Internet saytlari:

- 3.1. <http://www.gov.uz> (O'zbekiston Respublikasi hukumat portali)
- 3.2. <http://www.soliq.uz> (O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi)
- 3.3. <http://www.lex.uz> (O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi)
- 3.4. <http://www.mf.uz> (O'zbekiston Respublikasi moliya vazirligi)
- 3.5. <http://www.stat.uz> (O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi)
- 3.6. <http://www.ziynet.uz> (Jamoat axborot ta'lim tarmog'i)
- 3.7. <http://www.nalog.ru> (Rossiya Federatsiyasining Federal soliq xizmati)
- 3.8. <http://www.fmc.uz> (“FINMANCONSULT” kompaniyasi)
- 3.9. <http://www.norma.uz> (“NORMA HAMKOR” MChJ)